

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OILY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI**

IJTIMOIIY - IQTISODIYOT FAKULTETI

IJTIMOIIY ISH YO'NALISHI

IJTIMOIIY ISH KAFEDRASI

**BARKAMOL AVLODNI SHAKLLANTIRISHDA "OBOD TURMUSH
YILI"NING AHAMIYATI**

MALAKAVIIY BITIRUV ISHI

Bajaruvchi: Xolmatova N.

Ilmiy rahbar: ass.Tangirova M.

**Malakaviy bitiruv ishi Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasida bajarildi.
Kafedraning 2014 yil ____ ____dagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga
tavsiya etildi (bayyonnoma№ ____).**

Kafedra mudiri:

dots.Jo'rayev L.N.

**Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2014 yil ____ ____dagi majlisida
himoya qilindi va ____ foizga baholandi (bayyonnoma № ____).**

Samarqand – 2014.

Mavzu: Barkamol avlodni shakllantirishda “Obod turmush yili”ning ahamiyati

Kirish

I-BOB. MAMLAKATIMIZDA “OBOD TURMUSH YILI” VA UNNING MAZMUN MOHIYATI

- 1.1. “Obod turmush yili”ning mohiyati va nazariy asoslari
- 1.2. Mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirishining amaliy jihatlari

II-BOB. “OBOD TURMUSH YILI” VA UNI BARKAMOL INSONNI SHAKLLANTIRISHDAGI O’RNI

- 2.1. Aholini asosan yosh oilalarni ijtimoiy-iqtisodiy ma’naviy jihatdan qo’llab quvvatlashda “Obod turmush yili” ning o’rni.
- 2.2. Mamlakatimizda aholi turmush darajasini yuksaltirishda “Obod turmush yili”ning ahamiyati

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

**Mavzu: Barkamol avlodni shakllantirishda “Obod turmush yili”ning
ahamiyati**

Kirish

**I-BOB. MAMLAKATIMIZDA “OBOD TURMUSH YILI” VA UNNING
MAZMUN MOHIYATI**

- 1.1. “Obod turmush yili”ning mohiyati va nazariy asoslari
- 1.2. Mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirishining amaliy jihatlari

**II-BOB. “OBOD TURMUSH YILI” VA UNI BARKAMOL INSONNI
SHAKLLANTIRISHDAGI O’RNI**

- 2.1. Aholini asosan yosh oilalarni ijtimoiy-iqtisodiy ma’naviy jihatdan qo’llab quvvatlashda “Obod turmush yili” ning o’rni.
- 2.2. Mamlakatimizda aholi turmush darajasini yuksaltirishda “Obod turmush yili”ning ahamiyati

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

Kirish

Mavzuning dolzarbligi: O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, o'ziga xos bo'lgan taraqqiyot yo'lini bosib o'tmoqda va bugungi kunda jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish muhim vazifalardan biri ekanligi ta'kidlanmoqda. Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov ta'kidlab o'tganidek: "Xalqning ma'naviyati va madaniyati, uning haqiqiy tarixi va o'ziga xosligi qayta tiklanayotganligi jamiyatimizni yangilash va taraqqiyot ettirish yo'lidan muvafaqqiyatli ravishda olg'a siljitishda hal qiluvchi, ta'bir joiz bo'lsa, belgilovchi ahamiyatga egadir. Yuksak madaniyatni esa, chuqur ichki ma'naviyatga ega bo'lgan xalq yaratadi. Ana shu xalqgina buyuk yaratuvchilik qudratiga ega bo'ladi". O'zbekistonda islohotlarning ijtimoiy yo'naltirilganligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan odil, demokratik jamiyat tuzish uchun ishlab chiqilgan besh tamoyildan biri kuchli ijtimoiy siyosat ekanligi va Prezidentimiz tomonidan 2010 yil «Barkamol avlod yili», 2011 yil «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» 2012 yil "Mustahkam oila yili", 2013 yil "Obod turmush yili" deb e'lon qilinishi hozirgi kunimizning eng dolzarb masalasi ekanligini ko'rsatib turibdi¹.

Malakaviy bitiruv ishining vazifalari: Qo'yilgan maqsadga erishish uchun qo'yidagi vazifalarni belgiladim. Ta'kidlangan ushbu qadriyatlar avloddan-avlodga o'tib, sayqalanib, oila va oilaviy munosabatlar madaniyatini takomillashtirishda, yosh avlodni jismonan sog'lom, ma'nan barkamol, axloqan pok etib tarbiyalashda katta ahamiyatga ega bo'lib boradi. Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning quyidagi xususiyatlarini belgilaydi:

1. Oilada bolalar tarbiyasi bilan otalar va onalarning baravar shug'ullanishi;
2. Ota va ona bolalarga birdek munosabatda bo'lishi;
3. Oilada ota-onaning o'zini-o'zi tarbiyalashi zaruriyati;
4. Oilada sog'lom axloqiy muhit yaratishning zaruriyati;

¹ Каримов И.А., Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 21 йиллигига бағишланган анжумандаги маърузаси. Халқ сўзи, 2013 йил, 7-декабр. 3-бет.

5. Ota-onaning oilada bo'lajak fuqaroni tarbiyalayotganini his etishi;
6. Oila a'zolarining sog'lom munosabatlarini barpo etish;
7. Oilada bolalar shaxsiyatini hurmat etish, talabchanlikning g'amxo'rlik bilan uyg'unligi;
8. Oila an'analarini hurmat qilish, kelgusi avlodlarga etkazish

Malakaviy bitiruv ishining o'rganilganlik darajasi: Oila mavzusi mustaqillik yillarida ilmiy-tadqiqot ishlarining bosh mavzusi bo'ldi. Uning turli qirralari yoritilib, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida yosh avlodni oilaviy hayotga tayyorlash bosh muammolardan biriga aylandi. A. Q. Munavvarov, G'. B. Shoumarov, V. M. Karimova, O. Musurmonova, M. Inomova, M. Xolmatova, M. R. Bo'rievlar² ilmiy-tadqiqot ishlarida bu muhim muammoni tadqiqot ob'ekti qilib belgilab, ular mazkur yirik muammolar tarkibida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda yangi mazmun, yangi uslublar kashf etdilar.

Malakaviy bitiruv ishining maqsadi: Uzoq asrlardan buyon ajdodlarimiz oilaviy hayotni sog'lom turmush tarzining asosiy qismi deb, oilaviy hayotning muqaddasligini e'tirof etib, oilada farzandlarni hayot gulshani deb, ularni baquvvat, aqlli, odob-andishali qilib o'stirishga katta ahamiyat berishgan. Oila pokligi, ma'naviy madaniyati, uning islom shariati asosida shakllanishi, zo'ravonlik asosiga qurilgan munosabatlarga yo'l qo'ymagan. Farzand tarbiyasi oilaning muqaddas vazifasi bo'lib hisoblangan. I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "oila bizning xalqimiz uchun millatning ko'p asrlik an'analari va ruhiyatiga mos bo'lgan g'oyat muhim hayotiy qadriyatlardan biridir"³.

Ammo, sho'rolar tuzumi davrida madaniyatga mafkuraviy yondoshuv hukm surdi. Asrlardan buyon avlodlarimiz tomonidan avaylab-asrab kelingan xalqimiz turmush tarzining tarkibiy qismiga aylanib, qon-qoniga singib ketgan haqiqiy xalqchil urf-odatlar, marosimlar va an'analarning tarbiyaviy ta'siri kamsitilib, Ovro'pa va Rossiya oila, tarbiya modeli targ'ib qilindi, mahallalar o'rni kamsitildi. Tarbiyaviy sohadagi bunday uzluksizlikning uzilishi, respublikamiz tub aholisining

² Bo'rieva M. R. O'zbekistonda oila demografiyasi. – T.: «Universitet», 1997. 18 - b.

³ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari. T., "O'zbekiston" 1997. 67—b.

o'z milliy qadriyatlaridan judo etilishi ularni ma'naviy qashshoqlashtirdi. Din, xususan islom tarixi, uning madaniyatiga, ta'siri, manbalarni obyektiv yoritishda dunyo ilmidan orqada qolindi. Endilikda dinimiz axloqiy masalalar bilan uzviy bog'liqligi, u axloq-odob, ma'naviyatni boyitishda muhim manba ekanligi namoyon bo'lmoqda.

Malakaviy bitiruv ishining obyekti va predmeti: Bugungi mustaqillik kunimizda oila va oilaviy munosabatlar masalasi tushunchasi, malakaviy bitiruv ishining ob'ekti bo'lib, prezidentimizning olib borayotgan dono siyosati natijasida oila institutini qayta qurish, milliy urf-odatlar negizidan kelib chiqib, oilaviy tendensiyalarni vujudga keltirish borasida ulkan ishlar amalga jamiyatimizda oilalarimizni mustahkamlash borasida olib borilayotgan harakatlar malakaviy bitiruv ishining predmeti hisoblanadi.

Malakaviy bitiruvning ishining nazariy va metodologik asoslari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning "I.A.Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida", "O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi" nomli asarlaridagi mavzuga oid fikrlar, "Mustahkam oila yili va Obod turmush yili Davlat dasturi", mutaxassislarni mavzu bo'yicha qarashlari uslubiy ko'rsatmaning nazariy va metodologik asosini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi: Kirish, 2 ta bob, 4 paragraf, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Xulosa qismida yuqoridagi boblar va paragraflarda ifodalangan fikrlardan kelib chiqqan xolda umumiy fikrlar xulosalanadi.

I-BOB. Mamlakatimizda “Obod turmush yili” davlat dasturi va unning mazmun mohiyati

1.1. “Obod turmush yili”ning mohiyati va nazariy asoslari

Mamlakatimizda har bir yilga shu davr ichida taraqqiyotning muhim yo‘nalishlarini ifoda etadigan nom berish ezgu an‘anaga aylangan. Dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal etish uchun tegishli davlat dasturlari ishlab chiqilib, yil davomida amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonga investitsiyalar ajratishda nafaqat davlat, balki nodavlat tuzilmalar, jamoat tashkilotlari, korxonalar ham ishtirok etmoqda. O‘tgan yillar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, bunday dasturlarning hayotga tatbiq etilishi muayyan davrda bajarilishi belgilangan vazifalarni yuksak samaralar bilan amalga oshirish imkonini beradi. Ayni paytda istiqboldagi bir necha yil uchun zamin yaratib, rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab olishga ko‘maklashadi. Eng muhimi, bularning barchasi aholining turmush darajasi va farovonligini yanada oshirishga qaratilgan ishlar izchilligini ta‘minlash, jamiyatimiz, xalqimiz va mamlakatimizning yanada ravnaq topishiga xizmat qiladi.

Prezidentimiz Islom Karimov 2012-yil 7-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda 2013-yilni “Obod turmush yili”, deb e‘lon qildi.

Yurtboshimiz o‘zining ma‘ro‘zasida «Shuni ta’kildash kerakki, obod degan so‘zning ma‘nosini biz juda keng va chuqur tushunamiz. Obod deganda, xalqimiz, millatimiz nafaqat ko‘rkam va chiroyli, shu bilan birga tinchlik va osyishtalik, o‘zaro mehr oqibat, fayz baraka hukmron bo‘lgan joylarni, doimo pok niyat va sog‘lom intilish bilan yashashni tasavvur qiladi»⁴ degan fikrni ta’kiladi.

Ushbu ezgu maqsadlar “Obod turmush yili” Davlat dasturida o‘zining to‘liq ifodasini topdi. Unda belgilab berilgan chora-tadbirlar o‘tgan yillarda hayotga tatbiq etilgan keng ko‘lamli ishlarning mantiqiy davomidir.

⁴ Каримов И.А. «Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 20 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси». «Халқ сўзи» газетаси. 2012 йил. 8-декабр 3-бет.

“Obod turmush yili” Davlat dasturi 8 bo‘lim va 86 banddan iborat bo‘lib, ularda mamlakatimizning joriy yilda ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy hamda siyosiy hayotini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, aholi farovonligini oshirish, har bir oilada va, umuman, jamiyatimizda ijtimoiy barqarorlik, tinchlik va totuvlikni ta‘minlash yo‘llari aniq belgilangan.

Dasturda rejalashtirilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifasi davlat va nodavlat tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari, mamlakatimizning barcha fuqarolari qatnashishini taqozo etadi. Ularni bajaradigan muayyan ijrochilar – tegishli vazirlik va idoralar, amalga oshiriladigan tadbirlarning ijro muddatlari, moliyalash manbalari, monitoring tizimi, qonuniy-huquqiy, tashkiliy hamda iqtisodiy mexanizmlari belgilangan.

Mamlakatimizda barqarorlik va osoyishtalik, xavfsizlik, fuqarolar va millatlararo totuvlikni yanada mustahkamlash, inson huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilish, jamiyat farovonligi va ravnaqini izchil yuksaltirish mazkur Davlat dasturining muhim ustuvor yo‘nalishlari etib belgilangan. Ushbu ijobiy jarayonni ta‘minlash mamlakatimizda barcha jabhada amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarni chuqurlashtirish uchun mustahkam poydevor, jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni izchil davom ettirish kafolati, kuchli bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat barpo etish yo‘lida erishayotgan yutuqlarimizning muhim omilidir.

Shu nuqtai nazardan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning shakllangan qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish eng muhim vazifalardandir. Davlat dasturida to‘rtta qonun – O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi, “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to‘g‘risida”gi, yoshlarni ishga joylashtirish shart-sharoitlarini yanada takomillashtirishga qaratilgan “O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi, bolalar huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish maqsadida “O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi va O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga oila institutini takomillashtirishga

qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunlarni qabul qilish ko'zda tutilgan⁵. Bundan tashqari, "Yuridik va jismoniy shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi, "Ijtimoiy sherikchilik to'g'risida"gi, "Ekologik nazorat to'g'risida"gi qonun loyihalari ishlab chiqiladi.

Aholi farovonligi va real daromadlari muttasil o'sishini ta'minlash, bandlikni oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlikni yanada rivojlantirish, aholiga, avvalo, ijtimoiy ehtiyojmand qatlamlar va kam ta'minlangan oilalarga davlat tomonidan manzilli himoya va ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish "Obod turmush yili" Davlat dasturining muhim yo'nalishlaridandir. 2013-yilda byudjet tashkilotlari xodimlari ish haqi, pensiya, nafaqalar va stipendiyalar miqdorini o'rtacha kamida 23 foizga oshirish ko'zda tutilgan. Ijtimoiy sohani yanada rivojlantirish va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash samaradorligini oshirish maqsadida Davlat byudjeti jami xarajatlarining qariyb 60 foizi yo'naltiriladi.

Dasturda yangi ishlab chiqarish va infratuzilma ob'ektlarini qurish, xizmat ko'rsatish, kichik biznes, oilaviy tadbirkorlik sohalarini rivojlantirish, kasanachilikni kengaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar belgilangan. 2013-yilda, birinchi navbatda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik hamda kasanachilikni barqaror rivojlantirish hisobidan 970 mingdan ziyod yangi ish o'rinlari yaratildi.

Davlat dasturiga muvofiq tijorat banklari tomonidan oilaviy, xususiy tadbirkorlik sub'ektlari, hunarmandchilikni rivojlantirish, shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklari, shuningdek, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga o'z biznesini tashkil etishi uchun kreditlar ajratish amaliyotini kengaytirish rejalashtirilgan. 2013 yilda bunday kreditlarning umumiy hajmi 269,6 milliard so'mni tashkil qildi.

Dasturda mamlakatimizning har bir hududida sanoatni rivojlantirish bo'yicha hududiy dasturlarni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilgan. Ularda

⁵ O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri) // www.lex.uz

sanoat kooperatsiyasini mustahkamlash, hududiy korxonalarni mahalliyashtirish dasturini amalga oshirishga jalb etish, bo'sh yotgan ishlab chiqarish maydonlari negizida yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish ko'zda tutilgan.

Qishloq aholisini bog'dorchilik faoliyatiga jalb etish, uzumchilik, chorvachilik va ipakchilikni rivojlantirish ham aholi bandligi hamda daromadlarini oshirishga xizmat qiladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun yangi korxonalar barpo etish, mavjudlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish bo'yicha 288 loyihani amalga oshirish rejalashtirildi va bajarildi. Qayta ishlash hajmlari, jumladan, ishlab chiqarishni kengaytirish va qishloq xo'jaligi uchun zamonaviy mini-texnologiyalarni joriy etish hisobidan ko'paytirildi⁶.

"Elektron hukumat" tizimini jadal shakllantirish ham muhim va dolzarb vazifadir. Internet tarmog'ida "bir darcha" rejimida faoliyat yuritadigan interfaol davlat xizmatlari yagona portalini yaratish mo'ljallangan bo'lib, bu iqtisodiy faoliyat sub'ektlari va boshqaruv organlarining o'zaro munosabatlarini sezilarli darajada soddalashtirish imkonini beradi.

2013-yilda sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlarni chuqurlashtirishga oid ishlar davom ettiriladi. Shu maqsadda aholi salomatligini saqlash tizimini takomillashtirish, sog'liqni saqlash muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va rivojlantirish, ularni zamonaviy tashxis va davolash asbob-uskunalar bilan jihozlash, xastaliklarning oldini olishni kengaytirish hamda davolashning ilg'or texnologiya va uslublarini joriy etish, pirovard natijada fuqarolar, ayniqsa, onalar va bolalar salomatligini mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Chekka joylardagi aholi punktlarida 32 qishloq vrachlik punktini barpo etish, 54 tibbiyot birlashmasini qurish va rekonstruksiya qilish ko'zda tutilgan. Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, 11 viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazi va boshqa sog'liqni saqlash muassasalarini rekonstruksiya qilish rejalashtirilgan. Ularning barchasi,

⁶ Каримов И.А. «Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 20 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси». «Халқ сўзи» газетаси. 2012 йил. 8-декабр 3-бет.

shuningdek, 13 viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazi zamonaviy tashxis va davolash uskunalari bilan jihozlandi.

Inson kapitaliga investitsiyalarni yo'naltirish – izchil iqtisodiy rivojlanish va aholi farovonligini oshirishning muhim shartidir. Shu maqsadda joriy yil Davlat dasturida jismoniy va ma'naviy sog'lom, barkamol avlodni tarbiyalash, zamonaviy hunarlarni puxta egallagan mutaxassislarni tayyorlash, ta'lim darajasini yanada takomillashtirish va uning sifatini oshirish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarning har tomonlama samaradorligini ta'minlash ko'zda tutildi.

Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta'minlash doirasida 217 umumta'lim maktabini rekonstruksiya qilish va 164 umumta'lim maktabini, 159 akademik litsey hamda kasb-hunar kollejlarini kapital ta'mirlash, 55 musiqa va san'at maktabi hamda 116 bolalar sporti ob'ektini, oliy ta'lim muassasalari tizimidagi 45 inshootni qurish va rekonstruksiya qilish rejalashtirilgan. Ularning barchasi zarur uskuna va inventarlar bilan jihozlandi. Shu bilan birga, bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash ham ko'zda tutildi.

Mamlakatimizda yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashda ushbu jarayonning ma'naviy-axloqiy jihatiga e'tibor qaratish, ularda milliy g'urur, o'zlikni anglash tuyg'ularini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu ishlar doirasida 2013-yilda yoshlarning kasbiy ko'nikma va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish uchun ta'lim oromgohlari faoliyat ko'rsatdi, bolalar hamda yoshlarning foydali va madaniy dam olishini tashkil etish yanada yuqori darajaga ko'tarildi⁷.

“Obod turmush yili” Davlat dasturida xalqimizning turmush darajasi va hayot sifatini yanada oshirish, munosib yashash va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish, yangi turar joylar qurish, zamonaviy yo'llar va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, aholi punktlarini toza ichimlik

⁷ Каримов И.А. «Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 20 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси». «Халқ сўзи» газетаси. 2012 йил. 8-декабр 3-бет.

suv, elektr va issiqlik energiyasi bilan kafolatli ta'minlash bo'yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilgan. Masalan, 2013-yilda 553 qishloq massivida namunaviy loyihalar asosida 10 mingta yakka tartibdagi uy-joy quriladi, mamlakatimiz aholisini, birinchi navbatda, qishloq aholisini suv, gaz va kanalizatsiya xizmatlari, elektr energiyasi bilan ta'minlashni yaxshilash bo'yicha loyihalar amalga oshiriladi, minglab kilometr yangi yuqori voltli elektr uzatish liniyalari, suv chiqarish hamda gaz taqsimlash tarmoqlari ob'ektlari barpo etildi va mavjudlari rekonstruksiya qilindi.

Dasturda zamonaviy yo'llar, muhandislik-kommunikatsiya va transport infratuzilmasini rivojlantirishga ham katta e'tibor qaratildi. Umumiy foydalaniladigan avtomobil yo'llarini kapital ta'mirlash, shuningdek, qishloq joylarda uzunligi 239,1 kilometr bo'lgan yangi, tutashgan avtomobil yo'llarini barpo etish, shaharlarda yangi ko'chalar qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash rejalashtirildi va bajarildi.

Mahalla xalqimiz hayotida muhim o'rin tutadi. Shu munosabat bilan 2013-yilgi Davlat dasturida mahalla instituti va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish, ularning huquq va vakolatlarini kengaytirish, joylarda ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishga oid masalalarni hal etishda ularning o'rni va ahamiyatini oshirish, yosh hamda kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, mahallalar va turar joy massivlarining tashqi qiyofasini yaxshilash, obodonlashtirish hamda ko'klamzorlashtirishga oid muhim kompleks chora-tadbirlarni bajarish rejalashtirildi.

Mahallalarning qiyofasini yanada yaxshilash, uylarning old qismi va tomlarini, ko'chalar va yo'laklarni ta'mirlash, bolalar sport maydonchalarini qurish, energiya tejovchi texnologiyalarni qo'llash orqali tashqi yoritish tarmoqlarini rivojlantirish, sanitariya sharoitlarini yaxshilash ham dasturda belgilangan vazifalar sirasiga kiradi. Mahallalar hududlarida 15 million tup manzarali va 29,5 million tup mevali daraxt nihollari, shuningdek, 10 million tup gul hamda butalar ekish ko'zda tutilgan. 2013-yilda mahallalarni obodonlashtirish,

qishloqda ekologik turmush sharoitlarini yaxshilash masalalarini hal etishga nodavlat notijorat tashkilotlarini jalb qilish orqali qishloqlarning ijtimoiy infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha "Obod uyim" loyihasi amalga oshirildi.

Kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan oilalarni aniq manzilli asosda ijtimoiy himoya qilishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar istiqbolda ham izchillik bilan amalga oshirildi.

Mahallalarda yil davomida xalqimizga xos tinchlik-osoyishtalikka intilish, mehr-muruvvat, o'z xalqining tarixi hamda madaniyatini hurmat qilish kabi qadriyatlarni targ'ib etadigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, ko'rik-tanlovlar tashkil etildi.

Joriy yilda ham mamlakatimizda oilani yanada mustahkamlash, ayollarning oila va jamiyatdagi o'rni va mavqeini, ijtimoiy faolligini oshirish, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida ayollar bandligini ta'minlash va faoliyatini munosib rag'batlantirish, ularga o'zini namoyon etishi hamda uy-ro'zg'or yumushlarini yengillashtirish uchun qulay ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo'yicha bajarilayotgan ishlar yanada rivojlantirildi.

Xususan, Davlat dasturini hayotga tatbiq etish doirasida "Yosh oilalar uchun turar joy" dasturini, imtiyozli kreditlar taqdim etish orqali, ayniqsa, qishloq joylarda xotin-qizlar tadbirkorligini har tomonlama rivojlantirish va moliyalash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilgan. Shu maqsadda "Oila farovonligini yanada oshirish maqsadida ayollarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish" loyihasi ro'yobga chiqarildi.

Dasturda qayd etilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun jami 6655 milliard so'm yoki 919,2 million AQSH dollariga teng mablag' yo'naltiriladi. Shuning 3312, milliard so'mini davlat byudjeti va davlatdan tashqari jamg'armalar, 1917,9 milliard so'mini ijrochilar va homiylar, 1424,7 milliard so'mini tijorat banklarining kreditlari tashkil qiladi. Shuningdek, 664,6 million dollar hajmida xalqaro tashkilotlar, moliya institutlarining mablag'lari va grantlar jalb etildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri, barcha tuman va shaharlarda "Obod turmush yili" Davlat dasturini amalga oshirish bo'yicha

komissiyalar tashkil etiladi. Ularning vazifalari Davlat dasturida koʻzda tutilgan tadbirlarning soʻzsiz, toʻliq va oʻz vaqtida amalga oshirilishini taʼminlash, shuningdek, tegishli hududiy dasturlarni ishlab chiqish hamda bajarishdan iboratdir.

Davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish boʻyicha respublika komissiyasi zimmasiga davlat va xoʻjalik boshqaruvining respublika organlari, joylardagi davlat hokimiyati organlari hamda boshqa tashkilotlarning unda belgilangan tadbirlarning toʻliq va oʻz vaqtida bajarishiga doir ishlarni muvofiqlashtirish vazifasi yuklatildi.

Muxtasar aytganda, “Obod turmush yili” Davlat dasturi mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning barcha muhim yoʻnalishlarini qamrab olgan. Uning samarali amalga oshirilishi esa xalqimizning hayotini yanada yaxshilash, farovon, tinch va osuda turmush kechirishi, mamlakatimiz ravnaqini taʼminlash yoʻlidagi yana bir muhim qadam boʻldi⁸.

2013 yilning «Obod turmush yili» deb eʼlon qilinganligi munosabati bilan mamlakatda xalqning turmush darajasi va sifatini oshirish, farovonlik, tinchlik va totuvlikni taʼminlash vazifalarini amalga oshirishga resurslar va imkoniyatlarni safarbar qilish, davlat, nodavlat va jamoat tashkilotlarini keng jalb etish boʻyicha aniq maqsadga yoʻnaltirilgan chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish maqsadida:

1. «Obod turmush yili» Davlat dasturi ilovaga muvofiq tasdiqlansin, quyidagilar uni amalga oshirishning asosiy ustuvor yoʻnalishlari etib belgilansin:

a) mamlakatda barqarorlik va xavfsizlikni, fuqarolar totuvligini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni yanada mustahkamlash, inson huquqlari, erkinligi va manfaatlari muhofazasini taʼminlash;

b) aholi farovonligi va real daromadlarining izchil oʻsishini taʼminlash, ish bilan bandlikni oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, fermerlikni yanada rivojlantirish, aholini, birinchi navbatda, uning ijtimoiy nochor qatlamlarini

⁸ Каримов И.А. «Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 20 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси». «Халқ сўзи» газетаси. 2012 йил. 8-декабр 3-бет.

va kam ta'minlangan oilalarni davlat tomonidan aniq manzilli muhofaza qilish va ularga ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish;

v) aholi salomatligini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish, sog'liqni saqlash muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va rivojlantirish, ularni zamonaviy tashxis va davolash asbob-uskunalar bilan jihozlash, kasalliklar profilaktikasini kengaytirish hamda ularni davolashning ilg'or tibbiy texnologiyalari va metodlarini joriy etish, pirovard natijada – odamlarning, ayniqsa bolalar va onalarning sog'lig'ini mustahkamlash;

g) jismoniy va ma'naviy sog'lom, uyg'un kamol topgan o'sib kelayotgan avlodni, professional, zamonaviy darajada tayyorlangan kadrlarni tarbiyalash borasida olib borilayotgan ishlarning samaradorligini har tomonlama oshirish, ta'lim saviyasini yanada takomillashtirish va sifatini yuksaltirish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;

d) xalqning turmush darajasi va sifatini yanada oshirish, munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlar yaratish, yangi uy-joylar qurish, zamonaviy yo'llar va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmalarini rivojlantirish, aholi punktlarini toza ichimlik suv, elektr energiyasi va issiqlik bilan kafolatli ta'minlash bo'yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish;

e) mahalla institutini va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish, ularning huquqlari va vakolatlarini kengaytirish, joylarda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish, yosh va ehtiyojmand oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va ularga yordam berishni yaxshilash, mahallalar va uy-joy mavzelarining tashqi qiyofasini sifat jihatidan yaxshilash, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish vazifalarini hal etishda ularning roli va ahamiyatini oshirish;

j) oilalarni yanada mustahkamlash, ayollarning oila va jamiyatdagi roli va maqomini oshirish, ularning ijtimoiy faolligini kuchaytirish, ish bilan bandligini ta'minlash hamda ayollarning iqtisodiyotning turli tarmoqlari va sohalaridagi faoliyatini munosib rag'batlantirish, ularning o'z iqtidorini namoyon qilishi va uy-

ro'zg'ordagi ishlarini engillashtirish uchun qulay ijtimoiy-maishiy sharoitlar yaratish chora-tadbirlarini amalga oshirildi⁹.

2013 yilning 26 fevral – 5 mart kunlari O'zbekiston Elektron Ommaviy Axborot Vositalari Milliy Assotsiatsiyasi tomonidan o'tkazilayotgan media-kunlar doirasida 27 fevral kuni poytaxtimizning “Dedeman” mehmonxonasida “Obod turmush yili” Davlat dasturi: so'z va axborot erkinligini ta'minlashda Davlat – OAV – jamiyat hamkorligi” mavzusidagi davra suhbat bo'lib o'tdi. Davra suhbatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi, vazirlik va idoralar, fuqarolik jamiyati institutlari, NNTlar vakillari, “Forum TV”ning hududlardagi muxbirlik punktlari jurnalistlari, Yoshlar telestudiyalari ijodkorlari, ishtirok etishdi.

Tadbir tashkilotchilari Vazirlar Mahkamasi Madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy muhofaza masalalari majmuasi va Fond Forum. Ma'lumki, mamlakatimiz bosh qomusi – Konstitusiyamiz qabul qilinganligining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda muhtaram Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov tomonidan 2013 yil – O'zbekistonda “Obod turmush yili” deb e'lon qilindi. Shu yilning 14 fevral kuni esa, Prezidentimizning PQ-1920-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Obod turmush yili” Davlat dasturi imzolandi. Davlat dasturining 86-bandida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, yo'ldosh aloqa kanallaridan samarali foydalangan holda “Obod turmush yili” Davlat dasturi mazmun-mohiyati haqida axborot-tushuntirish ishlarini tizimli tashkil etish, jamoasi asosan yoshlardan tarkib topgan “FORUM-TV” va NTT telekanalari tomonidan reportajlar, axborot lavhalari, ijtimoiy roliklar tayyorlash va nodavlat-notijorat tashkilotlar tomonidan “Obod turmush yili” Davlat dasturi doirasida o'tkazilayotgan tadbirlarni keng yoritish vazifalari belgilangan.

Bugun yurtimizdagi 100 dan ortiq nodavlat teleradiouzatuvchilarni o'z safida birlashtirgan O'zbekiston elektron ommaviy axborot vositalari milliy

⁹ O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri) // www.lex.uz

assotsiatsiyasi Davlat dasturining ijrosini ta'minlash bo'yicha 13 ta bandeda mas'ul etib belgilangan. Ushbu yo'nalishda Assotsiatsiya va uning a'zolari tomonidan 9 000 ta axborot lavhalari, 15 000 ta radio xabarlar, 2500 ta mualliflik loyihalari va ijtimoiy teleradioroliklar tayyorlanishi rejalashtirilgan.

Ushbu jarayonda media-bozorning xususiy sektori vakillarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, sohaning qonunchilik bazasini takomillashtirish, ularning faoliyatini tashkil etishga ko'maklashish, kasbiy malakalarini doimiy ravishda, tizimli oshirib borish, bu jarayonga mahalliy va xorijiy ekspertlarni jalb etish, moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash, yuqori rivojlangan axborot tarqatish texnologiyalari hamda mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda Davlat dasturining 85 – bandiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Unda respublika hududlarida istiqomat qilayotgan yoshlarni jurnalistika sohasiga jalb qilish, yosh teleradiojurnalistlarning kasbiy malakasini oshirish, ularning ijod qilishlari uchun qulay sharoitlarni yaratish, shuningdek “Obod turmush yili” davlat dasturi ijrosining keng yoritilishi, mahalliy va xorijiy teleradio auditoriyasi o'rtasida targ'ibot-tashviqot ishlarini ta'minlash maqsadida: yil davomida 2 ta Media-lager, 4 ta festival, bundan tashqari qo'shimcha tarzda O'zbekiston elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi tomonidan 38 ta seminar-treninglar tashkil etish va o'tkazish, ushbu jarayonga 1500 nafardan ortiq yoshlarni jalb etish rejalashtirilgan. Ma'lumot o'rnida aytish kerakki, 2008 yilda “Yoshlar yili” Davlat dasturi doirasida Fond Forum, Assotsiatsiya, “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati, “Kelajak ovozi” yoshlar tashabbuslari markazi hamkorligida tashkil etilgan yoshlar telestudiyalarining vakillari bugun nodavlat efir studiyalarida, xususan “Forum-TV”, NTT telekanallarida o'zining mustahkam o'rnini topishgan.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 13 dekabrda F-3940-son farmoyishiga muvofiq tuzilgan Respublika komissiyasiga «Obod turmush yili» Davlat dasturining bajarilishini tashkil etish va monitoringini olib borish vazifasi yuklansin.

3. «Obod turmush yili» Davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha Respublika komissiyasi (Sh.M.Mirziyoev) quyidagilarni ta'minlasin:

bir hafta muddatda – Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlarda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi va tegishli hududlarning hokimlari boshchiligida Davlat dasturini amalga oshirish bo'yicha tegishli komissiyalar tuzish, ularga Dasturda nazarda tutilgan tadbirlarning so'zsiz, to'liq ko'lamda va o'z vaqtida amalga oshirilishi yuzasidan shaxsiy mas'uliyatni yuklash;

ikki hafta muddatda – vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan har bir vazirlik va idora, hudud, shahar, tuman va aholi punkti bo'yicha «Obod turmush yili» hududiy hamda tarmoq dasturlarini ishlab chiqish va qabul qilish; davlat va xo'jalik boshqaruvi respublika organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar darajasida tasdiqlangan Davlat dasturiga kiritilgan yo'nalishlar va tadbirlarni to'liq va o'z vaqtida bajarish ishlarini muvofiqlashtirish, ularning amalga oshirilishi yuzasidan tizimli nazorat o'rnatish; har chorak yakunlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoniga tasdiqlangan «Obod turmush yili» Davlat dasturi tadbirlarining bajarilishi to'g'risida axborot taqdim etish.

4. O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston matbuot va axborot agentligi, ommaviy axborot vositalari:

«Obod turmush yili» Davlat dasturining maqsadi va vazifalarini, uni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari va chora-tadbirlarini aholi o'rtasida muntazam, tizimli va keng yoritilishini; keng jamoatchilikning Davlat dasturi bajarilishi to'g'risida doimiy xabardor bo'lishini, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining Davlat dasturida nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirishdagi aniq hissasi yoritilishini ta'minlasinlar.

I.2. Mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirishda “Obod turmush yili”ning amaliy jihatlari

Obod turmush yilini e’lon qilinishini ma’no-mazmuni shundan iboratki, ushbu yilda barkamol avlodni shakllantirish boshqa ijtimoiy masalalar ichida ustuvor ahamiyatga ega bo’ladi. Ushbu jarayon faqat bir yil bilan tugamaydi, balki keyingi yillarda ham davom etadi, chunki barkamol avlodni shakllantirish bir yillik ish emas. Barkamol avlodni shakllantirish uzoq davom etadigan jarayon bo’lib, u odamlar ongini va ma’naviyatini rivojlantirish bilan bog’liq. Odamlarni dunyoqarishini o’zgartirish esa, uzoq davom etadigan evolyusion jarayon bo’lib hisoblanadi. Obrazli qilib aytganda, bu bir loyqalangan daryoki, uning tinishi ma’lum bir vaqtni taqozo etadi.

Barkamol avlodni shakllantirishda maqsadli ijtimoiy himoyaning o’rnini o’rganishdan oldin ijtimoiy himoya tushunchasini mazmunini aniq anglab olish lozim. Bu esa o’z navbatida bizni fikrlarni tarqoqligi va ayrim tushunmovchiliklardan saqlaydi. Ijtimoiy himoyani keng va tor ma’noda tushunish mumkin. Keng ma’noda aholini barcha qatlamlarini qo’llab-quvvatlashga qaratilgan davlat va jamiyatni chora-tadbirlari tushuniladi. Tor ma’noda esa aholini yordamga muhtoj qismini qo’llab-quvvatlashga qaratilgan davlat va jamiyatni chora-tadbirlar tizimini tushunish lozim.

Obod turmush yilini e’lon qilinishi buning uchun maxsus davlat dasturini ishlab chiqilishi maqsadli ijtimoiy himoyani namoyon bo’lishi bo’lib hisoblanadi.

O’zbekistondagi keng ko’lamli ijtimoiy himoya tizimi inson uchun munosib hayot va faoliyat sharoiti yaratishga qaratilgan. Bozor munosabatlariga o’tishning boshlanish etaplarida ijtimoiy himoya aholining hamma tabaqalariga yo’naltirildi. Masalan, aholi daromadini imtiyozlar sistemasi va turli xil datasiyalar orqali ko’tarishga harakat qilingan. Ish haqqi, nafaqaning minimal miqdorida soliq olinmas edi¹⁰.

¹⁰ O’zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o’zini-o’zi boshqarish organlari to’g’risida»gi Qonuni (yangi tahriri) // www.lex.uz

Jamiyat taraqqiyotini istiqbolini belgilashda yoshlar hal qiluvchi rol o'ynaydilar. Chunki ertangi kunimizning qandayligi yoshlarimizning bilim va ma'naviyatining darajasi bilan belgilanadi.

Yoshlarni va umuman insonni barkamolligi jismonan, ma'nan va aqlan yetuklik darajasi bilan bog'liq. Ana shu uch elementni uyg'unlikda rivojlanishi barkamollikni ta'minlashi mumkin. Respublikamizda yoshlarimizni uyg'unlikda rivojlanishi uchun barcha zarur bo'lgan shart-sharoitlar yaratilgan. Ta'lim to'g'risidagi qonun va Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur asosida barkamol avlodni shakllantirish borasidagi ishlar izchil ravishda olib borilmoqda.

Yoshlarimiz ularga yaratilgan qulay imkoniyatlardan oqilona foydalanib o'z bilim va ma'naviyatlarini oshirish ustida ishlashlari lozim. Chunki inson miyasiga bilimni majbur qilib singdirib bo'lmaydi. Buning uchun inson o'zi intilib bilimni egallashi kerak bo'ladi.

Barkamol avlodni shakllantirishda maqsadli ijtimoiy himoyani o'rnini o'rganish barkamol avlod tushunchasini ham chuqur anglab olishni talab etadi. Barkamol avlod deganda jismonan sog'lom, aqlan yetuk va ma'nan yuksak avlodni tushunish lozim. Ana shu uchalla asosda shakllangan avlodni barkamol avlod deb aytish mumkin.

Ana shu uch asosda tarbiyalangan barkamol avlod qayerda shakllanadi? Bunday avlodni shakllanishi oilada, mahallada, ta'lim-tarbiya muassasasida va mehnat jamoalarida shakllanadi. Bularni ichida asosiy o'rnini oila egallaydi. Barkamollikka oilada asos solinadi va boshqa institutlarda oilada olingan tarbiya negizida yangi xususiyatlar rivojlanib boradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov o'zlarining «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarlarida «Inson o'z umri davomida oladigan barcha informasiyaning 70 foizini besh yoshgacha bo'lgan davrda ular ekan deb yozganligi fikrimizni tasdiqlaydi»¹¹.

Barkamollikni muhim belgisi bu jamiyatga nisbatan dahldorlik hissini shakllanishi bo'lib hisoblanadi. Insonda o'zgalar manfaatini o'ylash hissiyoti

¹¹ Каримов И.А. «Юксак маънавият – енгилмас куч». Т., 2008, 53-б.

oilada shakllanadi. Shuning uchun ham mashhur donishmandlardan biri «oila altruizmning buyuk maktabi»¹² deb yozib qoldirgan. Oilaga yo'naltirilgan maqsadli ijtimoiy himoya oilani sog'lomlashtirib, barkamol avlodni shakllantirishga yordam beradi. Chunki barkamollikni muhim belgisi xudbinlikni jilovlanganligi, altruistik sifatlarni shakllanishi bilan belgilanadi. Oilada esa oila a'zolari bir-birovini manfaatini kimlardandir qo'rqib emas, balki ichki motivlar asosida ixtiyoriylik bilan ifodalaydi. Oila insonning shunday noyob evolyusion kashfiyotiki u shaxs bilan jamiyat o'rtasida vositachilik rolini bajaradi. Boshqacha qilib aytganda oila o'zini farzandlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish orqali jamiyatni barkamol avlodga bo'lgan ehtiyojini qondiradi.

Bola dunyoga kelib hayot mazmunini-mohiyatini anglaguncha oilani himoyasiga muhtoj bo'ladi. Oila bolani jismonan sog'lom qilib ta'lim olishga tayyorlab bergandan so'ng, ma'nan va aqlan yuksalish nafaqat oilaga balkim farzandning o'ziga ham bog'liq bo'lib qoladi. Bola jismonan sog'lom bo'lib o'sishi uchun uni organizmiga uglevod, oqsil, yog' va minerallar kerakli miqdorda berib borilishi lozim. Buning uchun esa oila iqtisodiy jihatdan kuchli bo'lishi kerak. Demak, barkamollikni negizida yotgan jismonan sog'lomlik oilani iqtisodiy qudrati bilan belgilanadi. Har qanday mamlakatni boyligi har bir oilani boyligidan tashkil topishi to'g'risidagi oddiy haqiqatni dunyoni barcha rivojlangan mamlakatalri anglab olishgan. Shuning uchu nasosiy e'tibor oilani iqtisodiy jihatdan mustahkamlashga qaratish lozim. Bola aqlan yetuk bo'lishi uchun fikrlash organi bo'lgan miyasiga kerak bo'lgan moddalarni ya'ni fosforni berish lozim bo'ladi.

Barkamollikni anglatuvchi ma'naviy yuksaklik axloqiy tarbiya jarayonida shakllanadi. Agar inson jismonan sog'lom va aqlan yetuk bo'lsayu, lekin ma'nan qashshoq bo'lsa, bunday odamni barkamol deb bo'lmaydi. Chunki ma'nan qashshoq odamda jamiyatga nisbatan daxldorlik hissi bo'lmaydi. Boshqacha qilib aytganda u jamiyatga nisbatan befarq bo'lib yashaydi. Befarqlikni sababi esa nodonlikdir. Inson oliy ma'lumoti fan nomzodi, fan doktori va hatto professor

¹² Антонов А.И., Медков В.М. Социология семьи. Москва, 1996, стр.60.

bo'lishi mumkin, lekin ayni paytda nodon bo'lib qolishi mumkin. Befarqlikdan xalos bo'lib, daxldorlik hissi bilan yashash uchun axloqiy tarbiya kuchayib ma'naviyat yuksalib borishi kerak. Ma'naviyat esa insonda irodani baquvvat qilib, iymon e'tiqodni butun qilib daxldorlik hissini shakllantirib befarqlikdan xalos etadi.

Barkamol avlodni shakllantirishda maqsadli ijtimoiy himoya oilaga yo'naltirilgan bo'lishi maqsadga muvofiq. Chunki, barkamollik asoslari oiladan boshlanadi. Ushbu xususda muhtaram Prezidentimiz shunday deb yozadi: «...yoshlarimizni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, hayot abadiyligi, avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan ma'naviyat qo'rg'oni bo'lmish oilani mustahkamlash bugungi kunda barchamizning nainki asosiy vazifamiz, balki insoniy burchimizga aylanishini istardim»¹³.

Barkamol avlod mamlakat boyligi har bir oilaning boyligidan tashkil topishini, hamda, xalqni erkinligi har bir odamni erkinligidan tashkil topishini anglab olgan bo'lishi lozim. Ana shu oddiy haqiqatni anglay olgan odamda jamiyatdagi voqyealarga nisbatan, qonun buzilish holatlariga nisbatan befarqlik bo'lmaydi. Ular jamiyatda tartib o'rnatishga xizmat qiladigan ijtimoiy regulyator bo'lgan huquq va axloqqa rioya qilishni nazorat qilishga qodir bo'lishi kerak. Inson zoti tabiatan nazoratga muhtoj, chunki unda tabiatan egoizm bor va nazoratsizlik oqibatida u faqat o'zini manfaatini o'ylaydi. Jamiyat odamlar majmuidan iborat ekan demak jamiyatda ham nazoratga ehtiyoj kuchli bo'ladi. Jamiyatda nazorat tizimini takomillashtirishda yoshlar ya'ni daxldorlik hissi bilan yashayotgan barkamol yoshlar o'zlarini munosib o'rinlariga ega bo'lishlari kerak.

Barkamol avlod boshqalardan nimasi bilan farq qilishi lozim. Unda jamiyatga nisbatan daxldorlik hissi kuchli bo'lishi kerak. U hayotga ongli munosabatga bo'lib biz qanday jamiyat qurayotganligimizni va qaysi yo'l shunday jamiyatga olib borishini aniq tasavvur qilishlari lozim. Va eng muhimi shunday jamiyat qurish uchun jamiyatda tartib bo'lishi kerakligini anglab olishlari lozim. Jamiyatda tartib bo'lishi uchun esa tartib o'rnatadigan ijtimoiy regulyatorlar

¹³ Каримов И.А. «Юсак маънавият – енгилмас куч». Т., 2008, 57-б.

bo'lgan huquq va axloqqa rioya qilish nazorat qilinishi lozim. Shunday nazorat tizimi shakllanishi kerakki, u jamiyatda qonun ustuvorligini va jazoni muqarrarligini amalda ta'minlasin. Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov Vazirlar Mahkamasidagi yig'ilishlardan birida bizda shunday nazorat tizimi shakllanishi kerakki, agar biror bir shaxs qonunni buzsa, uni jazosini yuqori lavozimda o'tirgan mansabdor shaxs emas, balkim tizim berish kerak deb ta'kidladilar. Ana shunday nazorat tizimi shakllanishi uchun eng muhim shart bu odamlarda va eng avvalo yoshlardagi dahldorlik hissidir.

Odamni baxtli bo'lishi uchun jamiyatda tartib bo'lishi kerak. Tartib bo'lmagan joyda hyech kim o'zini adolatsizlikdan, nohaqlikdan himoyalangan deb his qila olmaydi. Boshqacha qilib aytganda, tartib bo'lmagan joyda odam qo'rquv bilan yashaydi. Qo'rquv bilan yashagan odam hyech qachon baxtli bo'la olmaydi. Albatta qo'rquv umuman yo'q bo'lib qolmaydi, qo'rquv faqat huquq va axloq buzilishini ehtimoli kelib chiqqanda paydo bo'lishi kerak, xolos.

Davlat ijtimoiy siyosatining e'tibor markazida oila turishi lozim. Oilani mustahkamlash orqali bolalar va qariyalar muammosini ham hal qilish mumkin. Chunki to'laqonli oila er-xotinlik, ota-onalik va qarindoshchilikning uchalasini birligidan iborat bo'ladi. Ana shu uch elementdan iborat bo'lgan to'laqonli oilani tiklash va mustahkamlash asosiy vazifa bo'lishi kerak. Buning uchun jamiyatda oilaga yo'naltirilgan siyosat olib borilishi lozim. U yoki bu insonga munosabatda bo'lganda uni alohida individ sifatida emas, balki oilani bir a'zosi sifatida qarash lozim.

Hozirgi kunda mamlakatimizning bolalar uyida saqlanayotgan bolalarning 10 foizi yetim bolalar bo'lib, qolganlarining esa ota-onasi tirik bolalar bo'lib hisoblanadi. Oila inqirozi tufayli yordamga muhtoj bolalarni soni ortib bormoqda. Oilani mustahkamlash orqali yordamga muhtoj qarovsiz bolalarni 90 foizga qisqartirish mumkin bo'ladi.

Oilani mustahkamlamay turib, barkamol avlodni shakllantirish jarayoni samarali bo'la olmaydi. Chunki insonning ijtimoiylashuvining 90 foizi oilada amalga oshiriladi. Bu degani bolalarimizni hayotda qanday o'ringa ega bo'lishlari

va tarixda yaxshi nom qoldirishlari oiladagi muhit bilan belgilanadi. Oiladagi muhitni sog'lomligi nima bilan belgilanadi yoki qanday muhitni sog'lom muhit deb aytish mumkin? Insoniyat jamiyati yaralibdiki, adolat bilan razolat betinim olishuvda. Bu kurash jamiyatni barcha bo'g'inlarida jumladan oilada ham namoyon bo'ladi. Ushbu kurashda adolat g'alaba qozonsa muhit sog'lom agar teskari bo'lsa muhit nosog'lom bo'lib hisoblanadi. Oiladagi sog'lom muhit jamiyatdagi muhitni belgilab beradi. Oiladagi sog'lom muhit farzandlarimizni barkamolliklarini muhim sharti bo'lib hisoblanadi. «Qush uyasida ko'rganini qiladi» degan maqol ham aynan shuni anglatadi.

Yurtimizda aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog'lom bola tug'ilishi, jismoniy va ma'naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish va samaradorligini oshirish borasida olib borilgan targ'ibot ishlari natijasida joriy yilning 2013 yil Respublika bo'yicha onalar va bir yoshgacha bo'lgan go'daklar o'limi ko'rsatkichi, shuningdek, 15-16 yoshli qizlar o'rtasidagi tug'ruqlar kamayishiga erishildi. Xususan, 2013 yilda "Sog'lom avlod uchun" jamg'armasi hamkorligida Tibbiy-ijtimoiy patronaj brigadalari tomonidan respublika bo'yicha - 56284 nafar aholi tibbiy ko'rikdan o'tkazildi, ulardan ayollar - 24893 nafar, bolalar (0-14) - 15021 nafar, o'smirlar - 14724 nafar, shu jumladan erkaklar - 1646 nafarni tashkil qildi. Tibbiy ko'rikdan o'tkazilganlar 13058 ta oilada turli kasalliklar aniqlanib ular ambulator sharoitda va shifoxonalarda sog'lomlashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 14 fevraldagi PQ-1920-sonli "Obod turmush yili" Davlat dasturi to'g'risida"gi Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quvchi qizlari o'rtasida "Orasta qizlar" respublika festivali o'tkazildi. Toshkent shahrining 11 ta tumanlarida "Orasta yoshlar" Markazlari mahalla fuqorolar yig'ini qoshida tashkil qilindi. Joriy yilda

220 nafar yoshlar orasida seminar treninglar o'tkazilishi rejalashtirilib, shundan 96 nafar yoshlar orasida seminar treninglar o'tkazildi¹⁴.

2013 yil "Obod turmush yili" Davlat dasturi doirasida Sog'liqni saqlash vazirligi, "Sog'lom avlod uchun" jamg'armasi va Xotin-qizlar qo'mitasi hamkorligida 6057 ta bukletlar tarqatildi va 58491 nafar aholi ishtirokida o'tkazilgan suhbatlarda 763 ta ma'ruzalar o'qildi.

Albatta, bu yutuqlar barchasi e'tirofga loyiq, biroq bu borada kamchiliklar ham yo'q emas. 22 may kuni Sog'liqni saqlash vazirligining majlislar zalida O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi va Sog'liqni saqlash vazirligi hamkorligida aholi salomatligini mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish yo'nalishidagi dolzarb masalalar yuzasidan o'tkazilgan qo'shma videomuloqotda ushbu yo'nalishdagi muammolar muhokama etildi.

Tadbirda Prezidentimizning 2009 yil 13 apreldagi PQ-1096-sonli "Ona va bola salomatligini muhofaza qilish, sog'lom avlodni shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" va 2009 yil 1 iyuldagi PQ-1144-sonli "2009 - 2013 yillarda aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog'lom bola tug'ilishi, jismoniy va ma'naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi qarorlari ijrosi ham tahlil etildi¹.

Videomuloqotda nafaqat mavzuga oid ko'rsatkichlar, balki fuqarolar taqdiri misolida har bir holat tahlil etildi. Shuningdek, o'zaro hamkorlikni yetarlicha yo'lga qo'yilmaganligi, loqaydlik munosabatlarini mavjudligi kabi holatlar ham keskin tanqid ostiga olindi.

Yuqoridagilar bilan birga, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan aholining o'z sog'ligiga bo'lgan e'tiborini kuchaytirish, ya'ni, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini va tibbiy madaniyatni oshirishni keng targ'ib etish bo'yicha hududiy qishloq vrachlik punktlari va oilaviy poliklinikalarni tibbiy madaniyat maskaniga aylantirish taklifi bildirildi.

¹⁴ O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari organlari to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri) // www.lex.uz

Shuningdek, OIV/OITS kasalligini profilaktika qilish, chet eldan qaytgan migrantlarni o'z vaqtida tibbiy ko'rikdan o'tishlarini ta'minlash maqsadida kelgan migrant haqida xabar berish tizimini takomillashtirish bo'yicha alohida mexanizm va reja ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq deb topildi.

Shuningdek, fuqarolik jamiyatini qurishda ijtimoiy sherikchilik munosabatlari, o'zaro hamkorlik muhim ahamiyat kasb etishini inobatga olgan holda, amalga oshirilgan ishlarni birgalikda tahlil etish, mavjud muammolarni hamkorlikda hal qilish yo'llari belgilab olindi.

Tadbirda Sog'liqni saqlash vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Bojxona qo'mitasi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, "Mahalla" jamoat fondi, O'zbekiston temir yo'llari, O'zbekiston Havo yo'llari, Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar studiyalarida yuqoridagi tashkilotlarning hududiy rahbarlari ishtirok etdi.

Ma'lumki, bola oilada birinchi marta madaniyat va turmush bilan tanishadi, o'z xalqining urf-odatlarini va an'alarini, ona tilini o'zlashtirib oladi. Shaxs ma'naviyatiga, uning axloqiy fazilatlariga ilk yoshda oilada asos ko'yiladi, bu tushunchalar ijtimoiy tarbiya va ma'rifat tizimida rivojlanadi va shakllanadi. Shaxsning ma'naviy kamol topishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish ota-onalar va pedagoglarning u yoki bu yosh bosqichida axloqiy normalar o'zlashtirib olinishi konuniyatlarini qanchalik tushunishiga bog'lik bo'ladi. Shaxsiy istak bilan jamiyat zxtiyojlari, o'z xhtiyojlari bilan atrofdagilarning xoxish-istaklari o'rtasidagi karama-karshiliklarni yengib o'tishda oolaga aynan ota-onalar va pedagoglar yordam berishlari zarur. Axloq normalari va kadriyatlar shakllanishi qonuniyatlari mutaxassislarni xamma vaqt qiziqtirib kelgan. Jumladan, amerikalik psixolog Lourens Kolberg ma'naviy tanlash va akliy rivojlanishning o'zaro aloqasini ko'rsatib beruvchi bolaning axloqiy rivojlanishi nazariyasini ishlab chiqdi. Olim axloqiy rivojlanishga bag'ishlangan tadqiqotlar turkumida bolalar va o'smirlar oldiga gipotetik axloqiy dilemmalarni qo'yadi.

Shu maqsadda ularga ma'naviy tanlash imkoniyatini beradigan hikoya o'qib beriladi. Shundan so'ng ularga tekshiruvchilarning ma'naviy-axloqiy

ustuvorliklarini aniqlash imkonini beradigan savollar beriladi. So'rab chikilayotgan xar bir kishi insonning u yoki bu xatti-xarakatini nima uchun to'g'ri yoki noto'g'ri deb hisoblashini tushuntirib berishi kerak. Bolalarning javoblari xususiyati asosida axloqiy rivojlanishning olti bosqichini o'z ichiga oladigan uch daraja ajratib ko'rsatiladi.

Bolaning axloqiy rivojlanishi darajasi nima uchun aynan shunday javob berganligiga, o'zining ustunlik berishi sabablarini tushuntirib berish uquviga karab aniqlanadi. Ko'ramizki, har bir keyingi bosqich oldingi bosqichga asoslanadi, uni o'zgartiradi va o'z ichiga oladi hamda ma'naviy mulohazalarni ishlab chiqishga yangi yondashuvlar va mezonlarni tayyorlaydi. Har qanday madaniy muhitda odamlar Kolberg nazariyasi bo'yicha ushbu bosqichlarning barchasini u yoki bu tartibda bosib o'tadi. Tafovut fakat bosib o'tish tezligiga va ular u yoki bu bosqich doirasida qanchalik uzoqqa ketishidan iboratdir. Kolberg ma'naviy rivojlanish yakuniga o'rtacha 25 yoshda erishiladi deb hisoblaydi. Biroq rivojlanish davom etar ekan boskichlar izchilligi o'zgarmasdan qoladi.

Adabiyotlarda bolalarning axloqiy rivojlanishi konuniyatlarini yorituvchi boy material to'plangan. Ilmiy ishlanmalarga va pedagoglarning kasb mahoratini takomillashtirishga e'tibor berilishi ta'lim muassasalarining tarbiyaviy salohiyatini oshirish yo'llaridan biridir.

Aql bilan ish tutish, hayotni o'rganib yashashga intilish insonning asosiy fazilatidir. Maktablar bizga axloqdan saboq berib, aklimizni charxlab axloqiy tarbiyani amalga oshiradi; birok axloqli bo'lish faqat aqlli bo'lish degani emas (garchi ko'pincha aynan aql bizga axloqiylikni anglab olishda yordam bersa ham). Odatda, o'quvchilarni, so'zning keng ma'nosida, ma'naviy kamol toptirish va tarbiyalashda o'qituvchilarga alohida majburiyat yuklanadi deb hisoblanadi¹⁵.

Ko'pchilikka yaxshi ma'lum bo'lgan prinsiplardan biri axloqiy tarbiya birinchi navbatda ma'naviy fazilatlar shakllantirilishi deb ataladigan tushunchaga tegishli ekanligi bilan ajralib turadi. Maqsad - odamlarni to'g'ri so'z, sofdil,

¹⁵ Оила маънавияти. Ўзбекистон Республикаси. Жамоатчилик фикрини ўрганиш «Ижтимоий фикр» Маркази. Ўқув қўлланма. Тошкент -2007 й.

adolatli, g'amxo'r, mas'uliyatli va nazokatli qilib yetishtirish, ya'ni ularda ma'naviy fazilatlarni shakllantirish, ularga eng muhim ezguliklarni singdirish. Ma'naviy fazilatlarni shakllantirish bilan ilk bosqichda, bola axloqiylik haqida mulohaza yuritish yoshiga yetgunga qadar shug'ullanish lozim deyiladi. Bunga bevosita o'qitib bo'lmaydi, gap ijtimoiylashuv haqida borayotgan bo'lsa kerak. Rolli modeller qadriyatlarini o'zlashtirib olib, maktabdagi axloqiy muhitni normativ muhit sifatida qabul qilib, rag'batlantirish va jazolash tizimi tufayli maktab o'quvchilarining ma'naviyati boyib boradi. Ular o'zlariga to'g'ri munosabatda bo'lishgani tufayli sofdil bo'lib yetishishadi, o'zlariga nisbatan g'amxo'rlikni his etishgani uchun boshqalarga g'amxo'rlik qilishadi. Bu xildagi axloqiy tarbiya barcha o'qituvchilarning majburiyatidir - chunki barcha pedagoglar rag'batlantiradi va jazolaydi. Ularning barchasi xulq-atvorning potensial namunalari hisoblanadi, ularning barchasi o'z sinflarida ma'naviy muhit yaratadi.

Shu munosabat bilan quyidagi savollar tug'iladi: o'qituvchi ushbu faoliyat bilan samarali shug'ullanishi uchun o'z faoliyatining ushbu jihatini ongli ravishda boshqa jihatlardan ustun qo'yishi zarurmi? Bunday tarbiya axloqiy qiyofani shakllantirishning oldinga qo'yilgan maqsadi uchun yetarlimi yoki uni nima bilandir to'ldirish kerakmi?

Ko'pchilik konservatorlar ma'naviy fazilatlarni shakllantirish aniq maqsadga yo'naltirilgan axloqiy (va, balkim, diniy) tarbiya vositasida yuz berishi kerak deb hisoblaydilar. O'qituvchilar pedagoglar to'g'ri deb hisoblaydigan va bolalar o'zlashtirib olishi kerak bo'lgan ma'naviy ko'rsatmalar va e'tiqodni mustahkamlash va asoslash uchun an'analar to'g'risida so'zlab berishi kerak.

Liberallarning yuqorida bayon etilganlarga zid nuqtai nazari kuyidagicha: tarbiya aqidaparastlikka aylanmasligi uchun uni tanqidiy fikrlashga o'rgatish kerak. Axloqli inson bo'lish shunchaki axloqiy deb hisoblanadigan (yoki shunday hisoblanishi mumkin bo'lgan) xatti-harakatlarni qilish deganigina emas, muqobil xulq-atvorni tushunish va shaxsning alohidaligini etirof etish ham shunga kiradi. Keyingi bir necha o'n yillikda ikki model: Kolberg modeli va qadriyatli tarbiya tarafdorlari tomonidan ishlab chiqilgan model ustunlik qildi.

Yosh psixologiyasi bo'yicha mutaxassis bo'lgan Kolberg nuqtai nazariga ko'ra, bolalar ma'naviy kamol topishning bir qancha invariant bosqichlarini bosib o'tishadi. Bolalar ayni vaqtda kamol topishning qaysi bosqichida ekanligini aniqlash va ma'naviy anglab olish metodini qo'llagan holda yuqori bosqichlarga o'tishda bolalarga yordam berish o'qituvchining vazifasiga kiradi. Qadriyatli tarbiya tarafdorlarining rejalari uncha katta emas. Ular bolalarga ruhiy bosim o'tkazmaslikka intilib, o'z oldilariga kamtarin maqsad qo'yadilar. Bu maqsad o'quvchilardagi mavjud ma'naviy qadriyatlarni tushunib olishga yordam berishdan, yangi qadriyatlarni taklif etmaslikdan iborat.

Ma'naviyat o'qish uchun yo'nalish bo'lib xizmat qiladi: uni yo'naltiradi, tartibga soladi, ba'zan cheklaydi va o'kish mazmunini belgilab beradi. Ijtimoiylashuv jarayoni maktab bilan cheklanib qolmaydi. Talabalik davrida bo'lajak kasb faoliyatining asosiy yo'nalishi belgilanadi, qarashlar va atrof dunyoga munosabat shakllanadi. Ayni mana shu joyda dunyoqarashni, ma'naviy qadriyatlar tizimini, siyosiy va axloqiy ideallarni, shaxsning bo'lajak hayotiy muvofiqlashtiruvchi asosini tashkil etadigan barcha narsalarni shakllantirish muhimdir. Ta'limning axloqiy maqsadlariga gumanitar fanlarni o'qitish bilangina emas, balki sezgirlik bilan munosabatda bo'lish, oliy o'quv yurtida ma'naviy muhit yaratish orqali erishiladi.

Odatda, yoshlar real hayot bilan bog'liq bo'lgan umuminsoniy muammolarni puxta tushinmasdan o'qishga keladilar: adolat nima degani va u bormi? Erkin bo'lish nima degani? Hayotning ma'nosi nimadan iborat? Odamlar o'rtasidagi munosabatlar nimalarga asoslangan? Yoshlarning oliy o'quv yurtida o'qish davrida ushbu va dunyoqarash bilan bog'liq boshqa savollarga javob topishlariga to'g'ri keladi.

Umuman qaysi bilimlar, hayotning mazmunini to'ldiradigan qaysi narsalar qadrli hisoblanadi? Bular:

- sevgi;
- har xil hamjamiyatlarga (oilalar, mahalliy jamoalar, an'anaviy madaniyat, mamlakat, umuman insoniyatga) mansublik va o'zini ularning bir qismi deb bilish;

- hayotdagi ma'naviy dastur (g'amxo'rlik qilish, boshqalarning iztirobini eng ko'p darajada yengillashtirish, adolatni tiklash, totuv va halol yashash);

- fidoyilikni talab qiladigan va odamlarning farovonligiga xizmat qiladigan ish;

- san'at;

- aql bilan ish tutish.

Jamiyat hayotida madaniy qadriyatlarni targ'ib qilish va yoyishda qatnashadigan jamiyatning madaniyat institutlariga, shuningdek, televideniye, adabiyot, kino va teatr ham kiradi.

Oilalar, bolalar va o'smirlarning dam olishi xilma-xil va mazmunli bo'lishi ham, «bo'sh» va destruktiv bo'lishi ham mumkin. Keyingi o'n yillikda dam olishni faol va ijodiy o'tkazish uchun resurslar va imkoniyatlarning pasayishi bolali oilalarning televizor atrofida dam olishiga olib keldi. Keyingi o'n yillikda shaharda ham, qishloqda ham o'sib kelayotgan avlodning dam olishida televideniye birinchi o'rindaturadi.

Televideniye deganda quyidagilar tushuniladi: 1) tasvir va ovozni masofaga uzatish bilan bogliq fan va texnika bir necha sohalarining yigma nomi; 2) ommaviy audiovizual kommunikasiya vositasi; 3) san'at turi.

Juda katta auditoriyaning ayni bir vaqtda axborotni idrok qilishi imkoniyati tufayli televideniye ma'naviy kommunikasiyaning juda katta kuchiga, muhim omiliga aylandi. Tomoshabin u yoki bu voqea to'grisidagi birinchi axborotga ishonadi va o'z nuqtai nazarini o'zgartirishga moyil bo'lmaydi. Televideniye tomoshabinlarni san'at, fan olamiga oshno qildi. Dasturlarning intellektual, ijodiy darajasi, jumladan, ommaning estetik ongini ham shakllantiradi¹⁶.

Televideniye - bu axborot berish, ko'ngilocharlik va kamrok darajada ta'lim berish demakdir. Bolalar va o'smirlar imkoni bo'lgan barcha telekanallar va dasturlarni tomosha qilishadi. Ular bolalar va katta yoshdagilarga mo'ljallangan ko'rsatuvlarni birdek ko'raverishadi. Aynan televideniye keyingi o'n yillikda ko'p

¹⁶ Оила маънавияти. Ўзбекистон Республикаси. Жамоатчилик фикрини ўрганиш «Ижтимоий фикр» Маркази. Ўқув қўлланма. Тошкент -2007 й.

jihatdan yoshlarning qadriyatlari va xulq-atvor normalarini shakllantirmoqda. Kinofilmlar va reklama roliklari, seriallar o'zining muayyan koidalariga, xulq-atvor modeliga ega va ongga ta'sir ko'rsatadi. Biroq asosiy telekanallar tomonidan taqdim etiladigan mahsulot sifati mazmun va badiiy aks ettirish jihatidan past. Ko'plab filmlar va seriallar asosan ko'ngilocharlikka mo'ljallangan, badiiy saviyasi yukori bo'lmagan omma uchun yaratilgan.

Televideniyeining ta'siri darajasi va oqibatlarini aniqlash uchun respondentlarga: *«Televideniye odamlar ma'naviy tarbiyasiga qay darajada ta'sir ko'rsatmokda?»*, *«Televideniyeida odamlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir etadigan ko'rsatuvlar bulyaptimi?»*, *«Agar «ha» degan bo'lsangiz. aynan qaysi ko'rsatuvlarda bu hol namoyon bo'lmoqda?»* degan savollar berildi. So'rab chiqilganlarning atigi chorak qismi (25,0%) televideniyeining ma'naviy salohiyatini qayd etgan bo'lsa ham, respondentlarning mutlaq ko'pchiligi (82,3%) aholini ma'naviy tarbiyalashda televideniyeining kuchini ta'kidlashdi. Respondentlarning 49,3 foizi televideniyeining ma'naviy tarbiyaga ta'sirini «yetarli darajada», 33,0 foizi esa «muhim darajada» deb baholaydi.

Televideniyeining ta'siri muxim darajada deb hisoblovchilar ulushi pasayganligini, televideniyeining rolini «kam darajada» deb belgilovchilar soni ko'payganligini ko'rsatadi (10,4%).

Ijtimoiy-kasbiy darajada quyidagilar kuzatiladi: davlat organlari (6,8%), ta'lim (15,9%) va sogliqni saqlash (15,9%) sohalari xodimlari, oliy ma'lumotli respondentlar (14,8%) televideniyeining ta'sirini «kam darajada» deb baholashga moyildirlar, so'rab chiqilgan o'rta ma'lumotli respondentlar (8,7%), uy bekalari (7,1%), ishsizlar (7,0%), o'quvchilar (5,3%), nogironlar (3,2%) javobning ushbu variantini ancha kam qo'llab-quvvatlaydi.

So'rab chiqilganlarning 58,0 foizi televideniyeining odamlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini qayd etadi. Jumladan, har to'rt respondentdan biri (25,7%) TVda odamlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir etadigan ko'rsatuvlar bor, har beshtasidan biri (20,0%) TVda salbiy ko'rsatuvlar ko'p, 12,3 foizi bunday ko'rsatuvlar juda ko'p deb javob berdi.

2013 yilga taqqoslaganda televideniyeining odamlar ma'naviyatiga u yoki bu darajada salbiy ta'sirini qayd qilganlar soni ko'paygan, bunday ko'rsatuvlar televideniya yo'q degan qat'iy fikrni bildirganlar soni deyarli ikki baravar kamaygan (2012 yilda - 37,8%; 2013 yilda-19,4%).

Millatiga ko'ra o'zbeklar boshqa millatlarga qaraganda TV ko'rsatuvlariga tanqidiyroq munosabatda bo'lishadi. Uzbeklarning 13,4 foizi ko'rsatuvlarning ko'pchiligi salbiy ekanligini qayd etadi. Qoraqalpqlar bunday ko'rsatuvlar mavjudligini boshqalarga qaraganda ko'proq (30,8%) rad etadi. Ushbu milliy guruh bo'yicha mazkur ko'rsatkich 2003 yildagiga qaraganda ancha pasayganligini qayd etish lozim (59,0%).

Ko'rsatuvlarning ma'naviy mazmuniga eng ko'p darajda talabchan bo'lgan respondent qiyofasini quyidagicha tarzda tasavvur qilish mumkin: oliy ma'lumotlilar (16,3%), moddiy ahvoli juda yaxshi bo'lganlar (25,0%), fermer (27,3%) yoki ta'lim xodimi (22,7%), 40-49 yoshdagilar (14,2%), uylanganlar/turmushga chiqqanlar (12,9%).

Ushbu jihatdan respondentlar nuqtai nazarini aniqlashtirish odamlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan ko'rsatuvlarni aniqlash imkonini berdi.

Respondentlarning mutlaq ko'pchiligi (82,0%) axloq pormalariga to'g'ri kelmaydigan filmlar va musiqali ko'rsatuvlarni mana shunday ta'sirining manbai deb hisoblaydi. Reklama (2,9%), O'zbekiston (2,5%) va Rossiya (2,2%) televideniyesining ayrim shou-dasturlari, jinoyatlar sharhi va huquq-tartibot bo'yicha ko'rsatuvlar so'rab chiqilganlarning uncha ko'p bo'lmagan qismida e'tiroz tugdiradi. Rossiya televideniyesining shou-dasturlari ayollarga qaraganda (1,5%) erkaklarni (2,9%) ikki baravar ko'p g'azablantiradi. O'zbekiston televideniyesining ayrim ko'rsatuvlari va reklama 16-20 yoshdagilarning axloqiy tasavvurlariga muvofiq kelmaydi (tegishli ravishda 6,1% va 4,9%).

Shunday qilib, badiiy filmlar va musiqali shou-dasturlar odamlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishning asosiy manbai hisoblanadi.

Televizion ko'rsatuvlarni tomosha qilish ma'naviyatning haqiqiy ensiklopediyasi, har xil vaziyatlarda xulq-atvorning o'ziga xos «modellari» jami

bo'lib xizmat qilishi mumkin. Agar televideniye o'zining baholovchi fikr-mulohazalarini bildirish, o'z nuqtai nazarini dalillash, ko'rilganga nisbatan o'z munosabatini asoslash imkonini bersagina, bu hol yuz berishi mumkin. Bolani texnikaning (shu jumladan televideniye) «dumi»ga aylantirib qo'ymaslik uchun ham ommaviy axborot vositalari va kommunikasiyalarni nazorat qilish jihatidan, ham barkamol avlodni tarbiyalash uchun ularning salohiyatidan maqbul foydalanish jihatidan davlat va oilaning aniq nuqtai nazari zarur.

Ommaviy axborot vositalari tajovuz, zo'ravonlik, yovuzlik haqidagi materiallarga to'lib-toshib yotganligi yaxshi ma'lum. Bolalar real voqyeatarni realistik usulda beriladigan yolg'on voqyealardan ajratib olishi qiyin. Televideniye kundalik hayotning ko'p jihatlariga, jumladan, estetik did va tasavvurlar shakllanishiga ta'siri ko'p jihatdan madaniyatning boshqa turlaridan farq qilgan holda, televideniye o'zida uy muhitining bir qismini ifodalaydi (bu jihatdan u kinoga qaraganda radioga yaqinroq). Ushbu fakt o'z-o'zicha juda ko'p qirrali hamda turlicha tadqiqot nuqtai nazaridan har xil baholanadi. Televideniye ko'rsatuvlarining mazmunidan tashkari televideniye kuchli samaraga ega ekanligi - bu uni hamma vaqt ko'rish mumkin ekanligi, har bir uyda hozir bo'la olishi, uning odamlar hayotining katta qismi mobaynida millionlab fuqarolarni passiv tomoshabin darajasida tutib turish qobiliyatiga bog'liq. Televideniye oila va hamjamiyatning ichki o'zaro shaxsiy munosabatlarini juda kam darajaga keltirib ko'yadi. Tomosha qilingan ko'rsatuv to'g'risida bola bilan suhbat qilish bunday salbiy ta'sirni yengib o'tish usullaridan biri hisoblanadi. Bolalar bunday suhbatlar jarayonida qahramonning xatti-harakatlarini kattalar bilan birgalikda muhokama qilish, o'zining bahosi to'g'riligiga ishonch hosil qilish yoki undan shubhalanish imkoniga ega bo'ladi. Bolaga quyidagi savollarni berish foydalidir:

Bunchalik yovuzlik qilishga qahramonni nima majbur qildi?

Agar barcha odamlar yovuzlikka, adolatsizlikka mana shu tarzda qarshi kurashsa, nima bo'ladi?

Agar ushbu voqyealar real hayotda yuz bersa, inson qay ahvolga tushgan bo'lardi?

Siz qahramonning o'rnida bo'lganingizda nima qilgan bo'lardingiz?

Axloqiy tarbiya uchun tanlash vaziyati atohida ahamiyatga ega. Bunday vaziyatlarda ma'naviy bir xatti-harakatni sodir etish qobiliyati namoyon bo'ladi. Ularga mustaqil ravishda ixtiyoriy qo'shilish ijtimoiy urinib ko'rish deb ataladi.

Bizga zamondosh bo'lgan odamlarning ko'pchiligining rasman ma'lumotga egaligi ularning ichki ma'naviyatiga muvofiq kelmaydi. Madaniy qadriyatlar ular tomonidan o'z-o'zicha emas, balki muayyan maqsadlarga erishish, eng avvalo, lavozimda ko'tarilish, jamiyatda kattaroq mavqeyni egallash vositasi sifatida idrok qilinadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki barkamol avlod asoslari oilada shakllanar ekan, asosiy e'tibor oilani mustahkamlash va sog'lomlashtirishga qaratilib, jamiyatda oilaga yo'naltirilgan siyosat olib borish lozim. Ijtimoiy himoya strategiyasi oila global inqirozini bartaraf qilib to'la qonli oilani tiklash va mustahkamlashga qaratilishi lozim. Kuchli ijtimoiy siyosat olib borayotgan respublikamizda oilani mustahkamlash uchun barcha siyosiy, huquqiy sharoitlar mavjud. Bu borada maqsadli ijtimoiy himoya aniq yo'naltirilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Oila siyosatining strategik uzoq muddatli maqsadi oilani ijtimoiy institut sifatida mustahkamlashdan iborat. Bu maqsad oila hayot tarzini mustahkamlashda ifodalanadi va e'tiborni individga emas, uni oiladagi hayotiga va oilaga qaratilishini talab etadi. Hozirgi kunda butun dunyoda oiladagi o'zgarishlar, fragmentar oilalar va oilasiz yashash shakllari jamiyat tomonidan tan olinishi o'sib bormoqda. Shuning uchun strategik maqsad bo'lgan oilani ijtimoiy institut sifatida mustahkamlash jamiyat va davlat tomonidan bolali oilalarni, bir nechta avloddan iborat bo'lgan oilalarni qo'llab-quvvatlashni talab qiladi. Oilaga yo'naltirilgan maqsadli ijtimoiy himoya asosan 3-4 bolali oilani qo'llab-quvvatlashi maqsadga muvofiqdir. Bu esa o'z navbatida jamiyatni depopulyasiyadan asraydi ya'ni, tug'ilish bilan tabiiy pasayish o'rtasida mutanosib muvozanatni ta'minlaydi.

Ijtimoiy himoya tizimini yanada samarali qilish uchun mamlakatimizda mavjud bo'lgan ijtimoiy sohada faoliyat olib boradigan barcha institutlarni muvofiqlashtiruvchi markaz tuzish maqsadga muvofiqdir. Ushbu markaz ijtimoiy himoyani maqsadli ya'ni aniq yo'naltirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki, ijtimoiy himoya sohasida juda ko'plab institutlar faoliyat olib boradi lekin ularni faoliyatini muvofiqlashtirish yaxshi yo'lga qo'yilmagan. Bundan tashqari ijtimoiy himoyani samarali bo'lishi aholini siyosiy madaniyati bilan ijtimoiy siyosatga doir bilimlardan xabardorligi bilan belgilanadi. Shuning uchun ijtimoiy siyosat fanini nafaqat ijtimoiy ish yo'nalishlarida balki barcha yo'nalishlarda o'qitish lozim.

Maqsadli ijtimoiy himoya bolalarga, qariyatlarga, ayollarga va boshqalarga qaratilishi mumkin. Lekin oilaga yo'naltirilgan maqsadli ijtimoiy himoya ancha samaraliroqdir va iqtisodiy jihatdan ham tejamlidir. Maqsadli ijtimoiy himoya uy bekalariga yo'naltirilishi maqsadga muvofiq. Uy bekasi jamiyatda qadr topishi kerak va eng sharaflı kasb deb tan olinishi lozim. Bundan tashqari maqsadli ijtimoiy himoya iqtidorli, indigo va vunderkind bolalarga nisbatan yo'naltirilishi darkor.

II-BOB. “Obod turmush yili”ini barkamol insonni shakllantirishdagi o’rni.

2.1. Aholini asosan yosh oilalarni ijtimoiy-iqtisodiy ma’naviy jihatdan qo’llab quvvatlashda «Obod turmush yili»ning o’rni.

Oila – bu jamiyatning tayanch ustuni, uning hal qiluvchi bo’g’ini. Oilalarning mustahkamligi asosida jamiyat tinchligi va barqarorligi to’g’risida xulosa qiladilar. Unga qarab taraqqiyotdan bashorat qiladilar.

Oila – kishilar hayotining eng muhim qismi, fuqarolik jamiyatining tayanch nuqtasidir. Bu muqaddas maskanda inson dunyoga keladi, aynan mana shu yerda u ma’naviy va axloqiy jihatdan kamol topadi.

Oila institutini yanada mustahkamlash, bu borada olib borayotgan ishlarni yangi bosqichga ko’tarish alohida ahamiyat kasb etadi. Oila mustahkamligi – bu jamiyat mustahkamligi va demak, davlat barqarorligining asosidir. O’zbekiston Prezidenti Islom Karimov ta’biri bilan aytganda, **“oila sog’lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqarordir”**¹⁷.

Oila deb atalmish qo’rg’onda avlodlar kamol topadi. Shuning uchun bu qurg’onning mustahkam va barqaror bo’lishiga erishish nafaqat ma’lum bir mamlakat doirasida, balki dunyo miqyosida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma’noda masalaga e’tibor beriladigan bo’lsa, dunyodagi yirik va nufuzli xalqaro tashkilot – Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning Bosh Assambleyasi 1994 yildan e’tiboran har yili 15 may kunini *Xalqaro oila kunisifatida* nishonlashga qaror qilgani tahsinga loyiqdir.

1948 yil 10 dekabrda Amerika Qo’shma Shtatlarining Nyu-York shahrida BMT Bosh Assambleyasining 217A(III) rezolyusiyasi bilan qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon Deklarasiyasi”¹⁸ 16-moddasining 3-qismida **“Oila**

¹⁷ Islom Karimov. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: “Маънавият”, 2008 йил – 58-бет

¹⁸ «Декларация» сўзи французча declaration – «баёнот» деган маънони билдиради. Декларация – алохида сиёсий-ҳуқуқий ҳужжатларнинг уларга тантанали хусусият бериш, уларнинг давлат миқёсидаги аҳамиятини таъкидлаш мазмунига эга бўлган номи.

jamiyatning tabiiy va asosiy hujayrasi sanaladi vajamiyat hamda davlat tomonidan himoya qilinishga haqli” deb belgilangan¹⁹.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2012 yilning 1 yanvar holatiga O'zbekiston Respublikasining aholisi soni 29559,1 ming kishini tashkil etdi va 2011 yilning 1 yanvariga nisbatan 435,7 ming kishiga ko'paydi. 2011 yilda tug'ilganlar soni 626,9 ming kishini, o'lganlar soni 144,6 ming kishinitashkil etdi. Respublika aholisining 51 foizi (15069,6 ming kishi) shahar joylarda, 49 foizi (14489,5 ming kishi) qishloq joylarda istiqomat qiladi²⁰. Har yili davlat byudjetining 50 foizi ijtimoiy sohaga yo'naltirilmoqda²¹. 2012 yilga mo'ljallangan rejalarda davlat byudjetining 60 foizi ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, uning aksariyat qismi, avvalo sog'liqni saqlash, ta'lim-tarbiya, ilm-fan, madaniyat tarmoqlarini yuksaltirishga qaratilgan.

1998 yil mamlakatimizda “Oila yili” deb e'lon qilindi. Respublikamizda “Oila” ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi. Mamlakatimizda oila manfaatlariga qaratilgan amaliy tadbirlarning mantiqiy davomi sifatida “Ayollar yili” (1999 yil), “Sog'lom avlod yili” (2000 yil), “Ona va bola yili” (2001 yil), “Obod mahalla yili” (2003 yil), (2004 yil), “Sihat-salomatlik yili” (2005 yil), “Homiylar va shifokorlar yili” (2006 yil), “Yoshlar yili” (2008 yil), “Barkamol avlod yili” (2010 yil), «Mustahkam oila yili» deb e'lon qilindi. Masalan, 9 ta yo'nalishni o'z ichiga qamrab olgan “Obod turmush yili” «Sog'lom ona — sog'lom bola» — aholi o'rtasida sog'lom oila va sog'lom turmush tarzi masalalari yuzasidan tibbiy savodxonlikni oshirish” deb nomlangan bo'lib, unda onalar, bolalar va o'smirlarni sog'lig'ini muhofaza tizimini rivojlantirish va ularga shart-sharoitlar yaratish

¹⁹ Ўзбекистон “Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон Декларацияси”га 1991 йилнинг 30 сентябрида қўшилган. Мазкур халқаро ҳужжат мустақилликка эришган Ўзбекистон Республикаси қўшилган биринчи халқаро ҳужжат ҳисобланади. Бу эса ўз навбатида, Ўзбекистон Конституциясида таъкидланганидек, Ўзбекистоннинг «инсон ҳуқуқларига ва давлат суверенитети ғояларига содиқлигини» (“Муқаддима”дан) тасдиқлайди. “Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон Декларацияси”нинг ўзбекча матни бўйича қаранг: Инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартномалар: тўплам / Ўзбекча нашрнинг масъул муҳаррири А.Х. Саидов. – Т.: «Адолат», 2004; Сирожов Ғ. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациясига шарҳлар. – Т.: «Адолат», 1999; Инсон ҳуқуқлари тўғрисида халқаро билль. – Т.: «Адолат», 1992.

²⁰ Манба: Давлат статистика қўмитаси Ахборот хизмати.

²¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А. Каримовнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг Мингйиллик ривожланиш мажлисидаги нутқи, [2010 йил 20 сент.]; Хорижий ижтимоий-сиёсий доиралар вакилларининг муносабатлари ва шарҳлари / И.А. Каримов. – Т.: “Ўзбекистон”, 2011. – 10-бет.

maqsadida onalar va o'sib kelayotgan avlod uchun reproduktiv tibbiy yordam sifatini yanada rivojlantirish, qishloq xududlarida bo'lajak onalar uchun bepul tibbiy xizmat ko'rsatishni yanada takomillashtirish, respublikamizdagi ko'pgina tibbiy xizmat muassasalarini qayta ta'mirlash ishlarini amalga oshirish, barpo etilgan tibbiy maskanlarni zamonaviy tibbiyot jihozlari va mebellari bilan ta'minlash, tibbiyot xodimlarini malakasini oshirish, bolalar bog'chalarini moddiy-texnik bazasini rivojlantirish va ularni zamonaviy jihozlar bilan ta'minlash ishlarini olib borish ko'zda tutilgan edi. "Obod turmun yili"da "Yosh oilalarga g'amxo'rlikni kuchaytirish va ularga huquqiy va ijtimoiy muhofaza qilishni ta'minlash hamda sog'lom va mustahkam oilani barpo etish uchun shart-sharoitlar yaratish" deb nomlangan. Yosh oilalarga nisbatan g'amxo'rlikni kuchaytirish, ularning huquqiy va ijtimoiy himoyasini ta'minlash, sog'lom va mustahkam oilalarni shakllantirish maqsadida hokimliklar yosh oilalarga uy-joylar xarid qilish uchun kreditlar berish, hududlarda 32 ta xonadonlarni yosh oilalarga keyinchalik xarid qilish sharti bilan ijaraga berish, 42 ta baxt uylarini qurish va qayta ta'mirlash, yosh va kam ta'minlangan oilalarga har oyda moddiy yordamlarni amalga oshirishda ko'maklashish belgilandi. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, **"oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanini tan olishimiz darkor"**²².

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda **«Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir»** mavzusida ma'ruza qildi. Unda Prezidentimiz mamlakatimizda 2013 yilni *"Obod turmush yili"* deb e'lon qildi. Bu bejiz emas, albatta, chunki bu yil «Mustahkam oila yilining» davomi bo'lib, buning negizida yurtimizda oila institutini, avvalo, yosh

²² Каримов И.А. Оила фаровонлиги – миллат фаровонлиги. / Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида: Т. 6. – Т.: "Ўзбекистон", 1998. – 400-бет.

oilalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, oila tayanchi bo'lgan ayollarimizning og'irini yengil qilish, mahalla tizimining bu boradagi rolini kuchaytirish, muxtasar aytganda, oila farovonligini va shu asosda butun xalqimiz farovonligini yanada oshirish kabi maqsadlar mujassam. Haqli savol tug'iladi: har qaysi yilga nom berishdan maqsad nima? Bundan ko'zda tutilgan asosiy maqsad – butun xalqimiz, jamiyatimizning orzu-niyat va intilishlarini ifoda etadigan, ertangi kunimizning ravnaqiga xizmat qiladigan eng ustuvor yo'nalishni aniq belgilab olish va uni amalga oshirish uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishdan iboratdir.

Oilalarning mustahkamligini ta'minlashda mahallalarning o'rni yuksakdir. Chunki fuqarolik jamiyatining muhim tarkibiy qismi hisoblangan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan biri – mahalla oilalardan iborat. Mahalla – bu sharqona «demokratiya darsxonasi». O'zbekistonda fuqarolar yig'inlari va o'zini o'zi boshqarish organlari – mahallalarning soni 10 mingdan ortiqni tashkil etadi. «Mahalla» so'zi arabcha «mahal» so'zidan olingan bo'lib «istiqomat qiladigan joy», «hudud» ma'nolarini bildiradi²³.

Tarixchi olim Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy «Buxoro tarixi» asarida bundan 1100 yil ilgari mahalla xalq boshqaruvi bo'lganini yozgan edi. «Mahalla» atamasiga Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit-turk», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig»²⁴ asarlarida ham izoh berilgan. Qadimda mahalla nafaqat ijtimoiy, balki ma'muriy-hududiy tuzilma tarzida ham e'tirof etilgan. Alisher Navoiyning «Hayratul-abror» («Yaxshi kishilarning hayratlanishi») asarida quyidagi satrlar uchraydi²⁵:

Topg'ali ta'yini mahallot²⁶ bahr,

Ahli mahallot oyirib, shahr-shahr.

Shahrlar otini mahallot egib,

²³ Қаранг: Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари./Масъул муҳаррир А.Муҳаммаджонов./– Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – 37-бет.

²⁴ Юсуф Хос Ҳожиб. «Қутадғу билиг» («Саодатга бошловчи билим»). Сўзбоши муаллифи Б.Тўхлиев; Рассом Ш.Муҳаммаджонов. – Т.: Юлдузча, 1989. – 83-бет.

²⁵ Навоий А. Ҳайратул-аброр [Таҳрир ҳайъати: А.Қаюмов ва бошқ.; Сўзбоши муаллифи А.Ҳайитметов; Масъул муҳаррир: В.Раҳмонов]. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – 187-бет.

²⁶ «Маҳаллот» – «маҳалла» сўзининг кўплиги бўлиб, «маҳаллалар» маъносини беради. Қаранг: «Бобурнома» учун қисқача изоҳли луғат./Тузувчи Фатҳиддин Исҳоқов./– Андижон: «Andijon nashriyot-matbaa» ОАЖ, 2008. – 94-бет.

*Bo'ldi chu yuz shahr Hiri ot etib*²⁷.

Mahallaning «joy» degan mazmuni yuqoridagi tashbehdan ko'rinib turibdiki, o'rta asrlarda Hiri deb atalgan Hirot shahri yuzta kichik «shaharcha» – mahallalardan tashkil topgan ekan.

O'zbekiston o'z davlat mustaqilligiga erishganidan so'ng mahalla faoliyatining huquqiy asoslari yaratildi. Bunda mahallalar hayoti bilan bog'liq ko'p masalalar bilan bir qatorda mahalla oqsoqolini saylash tartiblari ishlab chiqildi.

Boshqa mamlakatlardan farqli o'laroq, mahalla instituti yurtimizda ming yillar davomida sinalgan va chuqur ildiz otgan, aholini birlashtirib turadigan ijtimoiy hodisa sifatida rivojlanib kelmoqda²⁸. Ayniqsa, uning hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida xalqimizning urf-odatlarini, an'ana va qadriyatlarini saqlab qolish, odamlarni jipslashtirish, ular o'rtasida mehr-oqibat tuyg'ularini kuchaytirish omili sifatida maydonga chiqayotganini yaqqol ko'rib turibmiz.

Mahalla o'zini o'zi boshqarish organlarining eng yorqin ko'rinishi, ayni paytda fuqarolik jamiyatining asosi va tayanchi deb tan olingani bilan ham o'zining yuksak mavqeyega ega. Mustaqillik yillari mobaynida jamiyatdagi boshqaruv tizimlarini isloh qilish, davlat vazifalarini jamoat tashkilotlariga bosqichma-bosqich o'tkazish, ya'ni kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o'tish borasidagi ishlar izchil davom ettirib kelinmoqda.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi O'zbekiston Respublikasining butun hududida amalga oshiriladi. Shaharchalar, qishloqlar, ovullar va mahallalar fuqarolar o'zini o'zi boshqarishining hududiy birliklaridir.

Shaharchalar, qishloqlar, ovullarni tuzish, tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini o'zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o'zgartirish fuqarolar o'zini o'zi boshqarishining tegishli organlari fikrini hisobga olgan holda, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

²⁷ Маъноси: «Маҳаллалар тайинли бўлиши учун маҳалла аҳллари шаҳар-шаҳарга бўлинган. Бу маҳаллаларга шаҳарларнинг оти берилган; шунинг учун Хиротда юзта шаҳарнинг номи бор». Насрий матн ушбу манбадан олинди: Навоий А. Ҳайратул-аброр [Таҳрир ҳайъати: А.Қаюмов ва бошқ.; Сўзбоши муаллифи А.Ҳайитметов; Масъул муҳаррир: В.Раҳмонов]. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – 332-бет.

²⁸ Масалан, Тошкентда XVIII асрда 150 та маҳалла ташкил топган бўлса, XIX асрда уларнинг сони 200 тага етган, XX аср бошларида эса 250 та маҳалла бор эди. Қаранг: Қораев С. Тошкент топонимлари./Масъул муҳаррир А.Р.Муҳаммаджонов./– Т.: «Фан», 1991. – 32-бет.

Shaharchalar, qishloqlar va ovullar, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullardagi mahallalar fuqarolarining yig'inlari (bundan buyon matnda fuqarolar yig'ini deb yuritiladi) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridir.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi va qonun bilan berilgan o'z vakolatlarini tegishli hududda amalga oshiradi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yuridik shaxs huquqlaridan foydalanadi, belgilangan namunadagi muhrga ega bo'ladi va mahalliy davlat hokimiyati organlarida hisobga olinishi kerak.

Mahalla deganimizda, avvalambor, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan va rivojlantiradigan, shu bilan birga, kelajak avlodlar qanday bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i, hayot maktabini tasavvur etamiz.

Mamlakatimizda o'zini o'zi boshqarish organlari fuqarolik jamiyatining asosiy instituti sifatida yildan-yilga takomillashib bormoqda. Shuningdek, mazkur organlarning boshqaruv tizimidagi ko'lamining kengayib borishi bilan huquqiy davlatning o'z vakolatlarini demokratik tamoyillar asosida amalga oshirishi uchun qulay va keng imkoniyatlar paydo bo'lmoqda. Mustaqillik davriga kelib fuqarolarning mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining qonuniy maqomini mustahkamlashga, ularni fuqarolik jamiyatining asosiy institutiga aylantirishga doir jiddiy islohotlar amalga oshirildi. O'zbekistonda mahallalar milliy mustaqillik davriga kelibgina o'zini o'zi boshqarish organiga aylandi. O'zbekiston Konstitusiyasi mahallaning maqomini fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi sifatida mustahkamladi. Mamlakatimizda shaharcha, qishloq, ovul va mahalla fuqarolar yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari huquqiy maqomini oldi. Jumladan, mustaqillik davrida yurtimizda 10 mingdan ko'proq o'zini o'zi boshqarish organlari shakllangan bo'lsa, ulardan 8142 tasini mahalla fuqarolar yig'inlari tashkil etadi. Mahalla mustaqil tashkilot sifatida qaytadan mustahkamlandi va ularning aksariyati o'zining qadimgi nomlarini va xalq o'rtasidagi obro'-e'tiborlarini qaytadan tiklab oldi.

O'zbekiston huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lidan izchil rivojlanib bormoqda. Bu buyuk maqsadga erishish yo'lida jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lgan oila muhim o'rin tutadi. Mamlakatimizda oila institutining rivojlanishi va jamiyatimizda oilaning kamol topishi yo'lida asos bo'ladigan mustahkam qonunchilik tizimi yaratilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ayni shu masalaga bag'ishlangan maxsus bob mavjud. Bu – O'zbekiston Konstitutsiyasining XIVbobi bo'lib, u “Oila” deb nomlangan. Mazkur bob 4 ta – 63–66-moddalarni o'z ichiga oladi²⁹. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida quyidagi g'oyat muhim yuridik norma belgilab qo'yilgan: **“Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega.**

Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi”.

Oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g'amxo'rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi.


Barcha fuqarolar oilaviy munosabatlarda teng huquqlarga egadirlar. Nikoh tuzish chog'ida jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyi hamda boshqa holatlarga qarab, huquqlarni muayyan tarzda bevosita yoki bilvosita cheklashga, bevosita yoki bilvosita afzalliklar belgilashga hamda oilaviy munosabatlarga aralashishga yo'l qo'yilmaydi.

Oilaviy munosabatlarda fuqarolarning huquqlari faqat qonunga asosan va faqat oiladagi boshqa a'zolarining hamda o'zga fuqarolarning axloqi, sha'ni, qadr-

²⁹ 1978 йилнинг 19 апрелида қабул қилинган Ўзбекистон ССРнинг Конституциясида оила масаласига фақат битта – 51-модда бағишланган эди. 1992 йилнинг 8 декабрида қабул қилинган мустақил Ўзбекистон Республикасининг Конституциясида эса никоҳ ва оила масалаларига тўртта модданинг бағишланиши давлат томонидан оилага қанчалик эътибор қаратилганлигини кўрсатади. Конституцияга эга бўлган давлатларнинг барчасида Конституция мамлакатнинг бош – Асосий Қонуни саналиб, унда давлат ва жамият ҳаётининг ўта муҳим масалалари тартибга солинади, бошқа ҳеч бир норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг унга зид келиши мумкин эмаслиги алоҳида белгилаб қўйилади (Ўзбекистон Республикаси Конституцияси 16-моддасининг 2-қисми мазмунида).

qimmatini, sog'lig'i, huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida zarur me'yordagina cheklanishi mumkin.

Nikoh tuzish ixtiyoriydir. Nikoh tuzish uchun bo'lajak er-xotin o'z roziligini erkin ifoda etish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Nikoh tuzishga majbur qilish taqiqlanadi.



O'zbekiston Konstitutsiyasining 64-moddasida ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar hamda davlatning bolalarga nisbatan g'amxo'rliqi tartibga solingan:

“Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburlirlar.

Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarni rag'batlantiradi”³⁰.

Oila a'zolarining o'z huquqlarini amalga oshirishlari hamda o'z majburiyatlarini bajarishlari oilaning boshqa a'zolari va o'zga shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzmasligi shart.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 65-moddasida shunday deyiladi:

“Farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi”³¹.

O'zbekiston Respublikasida oila, onalik, otalik va bolalik davlat himoyasidadir. O'zbekiston Respublikasida onalik va otalik izzat-ikromga hamda hurmatga sazovordir.

Ona va bola manfaatlarini muhofaza qilish ayollarning mehnati va sog'lig'ini saqlashga doir maxsus tadbirlar ko'rish, mehnatni onalik bilan bog'lab qo'shib olib

³⁰ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. 212 y. 64 modda.

³¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. 212 y. 65 modda.

borish uchun ayollarga sharoit yaratish, onalik va bolalikni huquqiy himoya qilish, moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash yo'li bilan ta'minlanadi.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 66-moddasida esa ushbu norma belgilab qo'yilgan:

“Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar”³².

Nikoh va oilaviy munosabatlarni huquqiy tartibga soluvchi asosiy manbalardan biri – bu O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksidir. Oila kodeksi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1998 yil 30 apreldagi qarori bilan qabul qilindi va o'sha yilning 1 sentyabridan e'tiboran kuchga kiritildi.

³² O'zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasi. Toshkent. 212 y. 66 modda.

II.2. Mamlakatimizda aholi turmush darajasini yuksaltirishda “Obod turmush yili”ning ahamiyati

Xalqimiz azaldan oilaning sha’ni, obro’sini ezgu qadriyat sifatida e’zozlab keladi. Zero, millatning o’zligini anglashida, shubhasiz, oilaning o’mi va ta’siri beqiyos. Yurtboshimiz tomonidan 2013 yilning «Obod turmush yili», deb nomlanishi katta ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy va ma’rifiy ahamiyatga ega. Bu, o’z navbatida, oilaning jamiyat taraqqiotidagi ahamiyatini oshirish, uning iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy va huquqiy manfaatlarini ta’minlash, ommaning milliy va siyosiy ongini yanada yuksaltirish bilan bog’liq ishlar yuzasidan aniq Davlat dasturini ishlab chiqish bo’yicha davlat idoralari, nodavlat va ijtimoiy tashkilotlar, xayriya jamg’armalari oldiga muhim vazifalarni qo’ydi.

Prezidentimizning O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasida ta’kidlanganidek, dasturda, avvalo, mamlakatimizda oila institutini rivojlantirish va takomillashtirish bo’yicha yangidan qabul qilshnadigan qonun, qoida hamda normalarda bugungi va ertangi kunimizning talablari aks etishi, amaldagi qonun hujjatlariga zarur o’zgartish, qo’shimchalar kiritish, bu masalaga jamiyatimizning e’tiborini yanada kuchaytirish ko’zda tutilmokda. Ayni kunlarda mazkur yo’nalishda belgilangan vazifalarni amalga oshirish va haetga joriy etish bo’yicha Davlat dasturini ishlab chiqish jarayonlari yakunlanayotir. Obod turmush yilida dastlabki ma’lumotlarga ko’ra moliyalashning barcha manbalari hisobidan qariyb 4 trillion 400 milliard so’m va 370 million dollardan ziyod mablag’ yo’naltirilishi rejalashtirildi. Bu mablag’ning salmoqli qismi, ya’ni 60 foizga yaqini davlat mablag’lari hisobidagi, 25 foizi tijorat banklari kreditlari, salkam 15 foizi mas’ul ijrochilarning o’z mablag’lari va 360 million dollardan ortig’i xalqaro institutlar hamda donor mamlakatlari mablag’lari ulushi bo’lishining o’ziyoq Obod turmush yili mohiyatining tom ma’noda yuksakligini namoyon etadi. Bunday katta miqdorda ajratilayotgan mablag’lar, avvalo, mamlakatimizdagi yosh oilalarga ko’rsatilayotgan ulkan e’tibor, g’amxo’rlik ifodasidir. «Obos turmush yili» g’oyasining amaliy ifodasi, birinchi

galda, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish idorasi, deb nom qozongan mahalla tizimida yanada oydinroq, yorqinroq ko'rinadi. Zotan, mahalla mustaqillik yillarida noyob ijtimoiy tuzilma sifatida shakllanib, «xalq vijdoni» degan yuksak ta'rif oldi. Xususan, yosh oilalarni hayot sinovlaridan olib o'tishda, jamiyatimizda insoniy fazilatlarni qaror toptirishda, milliy urf-odatlarimizga yot bo'lgan buzg'unchi g'oyalarga qarshi kurashda, azaliy qadriyatlarimizni asrab-avaylashda, yoshlarimizni turli zararli oqimlar ta'siridan saqlashda, odamlarga elkadosh bo'lish, ko'mak, maslahat berishda mahallalar o'rni va ahamiyatini hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi. Kam ta'minlangan oilalarga har tomonlama yordamlashish, ijtimoiy, moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash ham el-ulus vijdoni mahalla e'tibori hamda g'amxo'rlikda bo'ladi.

Mahalla institutining nufuzini oshirish yo'lida oldimizda turgan oliyjanob maqsad hamda vazifalar ijrosi, shaksiz, ularning faollari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Deylik, yosh oilalarning oyoqqa mustahkam turib olishlari, o'sib kelayotgan avlodning ham jismoniy, ham ma'naviy etuk bo'lib kamol topishi, ularning mustaqil hayotga dadil qadam qo'yishi — hammasi mahalla hamda oiladagi tarbiyadan boshlanadi. Shu bois Prezidentimiz Konstitutsiyamizning 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida, «...bugungi kunda yurtimizda yosh oilalarga ko'rsatilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik haqida ko'p gapirish mumkin. Shu bilan birga, xolisona tan olishimiz darkor — ana shunday sa'y-harakatlarimizni izchil davom ettirish, qaerda bo'lmasin, markazda, shahar yoki qishloq joylarda bo'ladimi, ezgu maqsadlarimizning har tomonlama tasdig'ini ko'rish uchun hali juda ko'p ishlarni amalga oshirishimiz kerak»³³, deganlarida aynan shunday holatlarni nazarda tutgan, albatta.

Bir so'z bilan aytganda, oilaga va uning a'zolariga ko'rsatiladigan har qanday ko'mak, g'amxo'rlik jamiyat rivoji, mamlakat taraqqiyoti va milliy manfaatlarimiz uchun xizmat qiladi. Yangidan qabul qilinadigan qonun, qoida va

³³ I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'rozasi. "Xalq so'zi gazetasi", 2012 yil 8 dekabr 2-bet.

normalarda bugungi va ertangi kunimiz talablari to'la aks etib, amaldagi qonun hujjatlarimizga kiritiladigan zarur o'zgartish hamda ko'shimchalar oilaning ma'naviy hayotimizda mustahkam tayanch bo'lishida yetakchi omilga aylanishi, shubhasiz.

Zamonamiz mohiyati bo'lgan "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" kontseptsiyasi asosida mamlakatimizda huquqiy, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati rivojlanib bormoqda. Fuqarolik jamiyatini shakllanish jarayonini va ushbu jarayon bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy o'zgarishlarni o'rganish hozirgi kunimizning eng dolzarb mavzularidan bo'lib hisoblanadi. Fuqarolik jamiyatini shakllanish jarayonida oilani mustahkamlash masalalarini ilmiy tadqiq qilish ham jamiyatshunos olimlar oldida turgan muhim vazifalardandir. Fuqarolik jamiyatini shakllanishi va oilani mustahkamlash masalalari nafaqat bizning mamlakatimiz uchun, balkim global miqyosdagi eng dolzarb muammolardan biridir. Chunki, hozirgi kunda oilani global inqirozi ro'y bermoqda va bu inqirozning keltirib chiqargan sabablar ichida fuqarolik jamiyatini shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan jihatlari ham bor.

Mamlakatimizda oilaga bo'lgan munosabat to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov shunday fikr bildirdi:

"... yoshlarimizni har taraflama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, hayot abadiyligi, avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan ma'naviyat qo'rg'oni bo'lmish **oilani mustahkamlash bugungi kunda barchamizning nainki asosiy vazifamiz, balki insoniy burchimizga aylanishini istardim**"³⁴. Ushbu so'zlardan oila muammosi davlat diqqat markazida turgan eng muhim va dolzarb muammo ekanligi yaqqol ko'rinib turibdi. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlari yo'lini tanlagan O'zbekiston Respublikasida oilani qo'llab-qo'vvatlash va mustahkamlash masalasi ustuvor yo'nalish bo'lib kelmoqda. Buni taraqqiyotning o'zbek modelining besh tamoyillaridan biri kuchli ijtimoiy siyosat ekanligidan ham ko'rish mumkin. Fuqarolik jamiyati shakllanib borayotgan mamlakatimizda oilani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

³⁴ I.A.Karimov «Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch» T. 2008 y. 56-57 b.

Fuqarolik jamiyatini shakllanish jarayoni va bu jarayon bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy o'zgarishlarni u yoki bu jihatlari jamiyatshunos olimlar tomonidan ilmiy tadqiq qilib kelinmoqda. Lekin, fuqarolik jamiyati shakllanish jarayonida oila bilan bo'layotgan o'zgarishlarni o'rganish jamiyatshunos olimlarning nazaridan ozrok chetda qolmoqda. Vaholanki, fuqarolik jamiyatini shakllanish jarayoni ijtimoiy hayotni barcha sohalariga, jumladan, ijtimoiy–madaniy sohaga ham, ayniksa, oila va oilaviy munosabatlarga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Shuning uchun oilani mustahkamlash jarayonida fuqarolik jamiyatini shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan va oilaga salbiy ta'sir etadigan omillarni aniqlash va ularni kelib chiqish sababini topish hamda oldini olish choralarini ham kurish lozim.

Ushbu mavzuda gapirishdan oldin fuqarolik jamiyati tushunchasini mazmun-mohiyatini anglab olish lozim. Fuqarolik jamiyati–fuqarolarni xilma-xil ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan birlashmalarning majmuidir. Insoniyat yakka harakat qilgandan ko'ra birlashgan holda harakat qilish samarali ekanligini allaqachonlar anglab etgan va bu oddiy haqiqat odamlarni birlashishga undab kelmoqda. Fuqarolarning birlashuvi inson huquqlarini himoya qilish imkoniyatlarini kuchaytirib xulqdagi erkinlikni ham kengaytiradi. **Bu albatta ijobiy xolat, lekin inson shunday mavjudotki uni xulqi ma'lum bir normalar orqali tartibga solinib turilishi lozim. Agar inson harakati tartibga solinmasa, tug'ri yo'ldan og'ish holatlari ko'payib insoniyat o'zini-o'zi halok qilish xavfi kelib chiqadi**³⁵. Shuning uchun insonning harakatini ostida o'zi anglamagan holda o'zini-o'zi qirg'in qilish xavfi yashirinib yotadi degan fikr mavjud. Bunday ayanchli holat ro'y bermasligi uchun odamlarning xulqi va ular urtasidagi munosabat tartibga solinib turishi lozim.

Insoniyat jamiyatida odamlar urtasidagi munosabatni tartibga solish uchun ikkita ijtimoiy regulyator ya'ni huquq va axloq o'ylab chiqilgan. Lekin ijtimoiy regulyator bulgan huquq va axloq jamiyatda tartib o'rnatishi uchun ularga rioya qilish ta'minlangan bo'lishi lozim. **Fuqarolik jamiyatini shakllanishi jarayonida odamlarning xulqini huquq vositasida tartibga solish imkoniyati nisbatan**

³⁵ O.Hasanboeva va b. Oila pedagogikasi. Toshkent. "Aloqachi" nashriyoti 2007-y. 53-bet.

pasayadi. Chunki, fuqarolarning huquqlari ortib borgan sari ularga huquq vositasida ta'sir etish imkoniyati pasayib boradi³⁶. Masalan, diniy e'tiqod erkinligi huquqi xoxlagan dinga kirish yoki ateist bulish imkoniyatini beradi. Missionerlik va prozelitizm kabi voqeyliklarni kelib chiqishi ham diniy e'tiqod erkinligini kuchayishi bilan bog'lik. Xuddi shunday, o'z fikrini erkin ifodalash huquqi axloq va axloqsizlikni targ'ib qilish imkoniyatini kengaytiradi. Globallashib borayotgan dunyoda G'arb mamlakatlarini madaniyatini "ommaviy madaniyat" niqobi ostida targ'ib qilish imkoniyati kuchaymoqda. Xuddi shunday, oila qurishda sherik tanlash erkinligi huquqi xoxlagan odam bilan sherik bulish imkoniyatini keltirib chiqaradi va hatto bir jinsli nikohlarni paydo bo'lishiga sharoit yaratadi.

Bu esa o'z navbatida oila global inkirozini bizning mamlakatimizga kirib kelish imkoniyatini keltirib chiqarmoqda. Demak, har qanday yangi ijtimoiy voqeylik singari fuqarolik jamiyatining shakllanish jarayoni ham ijobiy va salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Buning sababi fuqarolik jamiyati sharoitida odamlarning xulqini huquq vositasida tartibga solish imkoniyatining pasayishidir. **Bunday xolatni oldini olish uchun fuqarolik jamiyati shakllanish jarayonida huquqiy ta'sir etish imkoniyatining pasayishini kompensatsiya qiladigan axloq vositasida tartibga olish kuchayib borishi kerak.** Bu esa jamiyatda axloqiy tarbiya negizida ma'naviyat yuksalib borishini taqozo etadi.

Jahon miqyosida fuqarolik jamiyatini rivojlanish darajasi har xil bo'lganligi kabi oilaning global inqirozi darajasi ham har xil namoyon bulmoqda. Masalan, fuqarolik jamiyati ancha rivojlangan dunyoning ilg'or mamlakatlarida oilaning global inqirozi yaqqolrok namoyon bo'layotgan bulsa, fuqarolik jamiyati shakllanayotgan dunyoning rivojlanayotgan mamlakatlarida esa oilaning inkirozi endigina namoyon bulmoqda. Shuning uchun oila global inkirozini bartaraf qilish chora-tadbirlari ham shunga mos bo'lishi kerak. Chunki, kasallikni davolash usuli kasallikni keskinlik darajasi bilan belgilanadi. Lekin, oila bilan bo'layotgan o'zgarishlar to'g'risida ikki xil yondashuvni ya'ni oila modernizatsiyasi va oila

³⁶ Nabiyeu F.X. Yuksar ma'naviyat va etuk siyosiy madaniyat. "Mahalla" 2010 y. 29 aprel.

inqirozi paradigmlarini mavjudligi oilani mustahkamlashga qaratilagan chora-tadbirlarda oila inqirozi darajasi e'tiborga olinmasligini va yagona yondashuvni yo'qligini keltirib chiqarmoqda³⁷.

Masalan, 2000 yilda BMT tomonidan qabul qilingan Ming yillik rivojlanish maqsadlari(MRM) dasturida belgilab berilgan vazifalar G'arb mamlakatlaridagi oila inqirozi darajasidan kelib chiqib belgilangan. Vaholanki, har qanday kasallikni jumladan, ijtimoiy kasallikni ham davolashda kasallikni og'ir va engilligiga qarab chora-tadbirlar belgilanadi. Ayni holatda BMTning MRM da belgilab berilgan vazifalar Sharq mamlakatlaridagi, jumladan O'zbekistondagi oila inqirozi darajasini inobatga olmagan holda ishlab chiqilgan. Agar inobatga olinganda edi MRM dagi sakkizta vazifani oltita qilib ya'ni 2,3,4, vazifalarni bitta qilib belgilash mumkin edi. Chunki, MRMda bolani, onani va ayolni himoya qilish va qullab-quvvatlash oila doirasida emas, balki alohida vazifa qilib belgilangan, vaholanki O'zbekiston sharoitida ularni oilani qullab-quvvatlash va mustahkamlash orqali amalga oshirish mumkin va maqsadga muvofiqdir.

Chunki, oila bilan bo'layotgan o'zgarishlarni inqiroz deb bilayotgan SHarq mamlakatlaridan farq qilib, G'arb mamlakatlarida ushbu o'zgarishlar ko'pincha modernizatsiya deb qabul kilinishi sababli bolani, onani va ayolni oila doirasidan tashqarida alohida himoya qilishga urinishni keltirib chiqarmoqda. Chunki, G'arb mamlakatlaridagi oilaning hozirgi inqirozli holati normal holat deb qabul qilinmoqda. Bunday "normal" holat deb qabul qilinayotgan zamonaviy oilada bolani va onani oila doirasida himoya qilish imkoniyati deyarli yo'q. Chunki, nikohsiz oilalar, ajralishlar, oilaning nuklearlashuvi, yolg'iz oilalar va bir jinsli oilalarda namoyon bo'layotgan oilaning global inqirozi sharoitida bola va onani oila doirasida himoya qilish mumkin bo'lmay qoladi.

Oilani mustahkamlash to'g'risida gapirishdan oldin oilani ta'rifini, tarkibini va funktsiyalarini ifodalash lozim. Oila bu nikoh asosida tuzilgan er-xotinlik, ota-onalik va qarindoshchilik rishtalari bilan bog'langan odamlar guruhidir. Oilaning tarkibi uch elementning birligidan ya'ni er-xotinlik, ota-onalik va

³⁷ Ubaydullayeva R.A. Mustaqil O'zbekiston: ayol, oila va jamiyat. T.: Fan, 2006-y.

qarindoshchilikdan iborat bo'lgan butunlikdir. Oila jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan reproduktiv (bola tug'ilishi), ekzistentsional (bola parvarishi) va ijtimoiylashuv (bolani hayotga tayyorlanishi) funktsiyalarini bajaradi. **Oila o'z funktsiyalarini samarali bajarishi uchun u iqtisodiy jihatdan mustahkam bo'lishi lozim. Shuning uchun oilani iqtisodiy faoliyati uning muhim belgilaridan bo'lib hisoblanadi**³⁸. Demak, oila o'z funktsiyalarini bajarishi uchun u eng avvalo iqtisodiy jihatdan kuchli bo'lishi lozim ekan. Buning uchun oila faoliyatining muhim belgisi bo'lgan iqtisodiy faoliyatni tiklash va mustahkamlash maqsadga muvofiqdir. Bu borada mahalla institutlari imkoniyatidan kengroq foydalanib mahallani oilaviy tadbirkorlik markaziga aylantirish choralarini ko'rish lozim.

Oilani mustahkamlashdan davlat ham, jamiyat ham va shaxs ham manfaatdordir. Chunki, shaxs oilada o'zini naslini davom ettirishi uchun bolaga bo'lgan ehtiyojini qondirishi bilan davlat va jamiyatning ma'lum bir status va rol' egalariga bo'lgan ehtiyojini ham qondiradi va bu bilan oilani vositachilik roli amalga oshiriladi. Oila qanchalik mustahkam bo'lsa, o'zini shaxs va davlat o'rtasidagi vositachilik rolini shunchalik samarali bajara oladi. Shuning uchun mamlakatning boyligi va mustahkamligi har bir oilaning boyligidan va mustahkamligidan tashkil topadi degan umum e'tirof etilgan fikr mavjud.

Oilani mustahkamlashda asosiy e'tibor oila o'z ehtiyojlarini o'zi qondira olishiga va muammolarini o'zi hal qilishga qodir bo'lishiga erishishga qaratilishi lozim. Agar e'tibor faqat oilani u yoki bu muammosini hal qilib berishga qaratilsa, bu oilada boqimandachilik kayfiyatini keltirib chiqaradi. Bunday usul bilan oilani mustahkamlab bo'lmaydi. **Mustahkam oila deganda o'z ehtiyojlarini o'zi qondira oladigan, o'z manfaatlarini o'zi ifodalay oladigan va hayotda uchraydigan muammolarni o'z ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib bartaraf qila oladigan oila tushuniladi**³⁹. Bunday oila jismonan, aqlan, ma'nau va

³⁸ O.Hasanboeva va b. Oila pedagogikasi. Toshkent. "Aloqachi" nashriyoti 2007-y. 58-bet.

³⁹ Nabiyev F.X. Yuksar ma'naviyat va etuk siyosiy madaniyat. "Mahalla" 2010 y. 29 aprel.

iktisodiy jihatdan kuchli bo'lgan oila a'zolaridan iborat bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda mustahkam oila mustahkam oila a'zolaridan tashkil topadi.

Oilani mustahkamlash har bir oila a'zosini mustahkamlashdan va eng avvalo oila yadrosini tashkil qilgan er-xotinning mustahkamligidan tashkil topadi. er-xotin mustahkam bo'lishi uchun ular oddiy bir xaqiqatni ya'ni ularning birini baxti ikkinchisini baxti bilan belgilanshini bilishlari bilan bogliqdir. Buni anglagan eru-xotin hayotda uchraydigan har qanday qiyinchiliklarni echishga qodir bo'ladi. Bu esa oila mustahkamligini muhim omilidir. Bundan tashkari ular oila mukaddas ekanligini anglab olgan bo'lishlari va bola tarbiyasi oldida mas'uliyatni his qilib yashashlari lozim. Buning uchun bola tarbiyasi bilan ota-ona uziga keksalikka qulay sharoit yaratishini bilishi lozim. **Oila oldidagi mas'uliyatni kuchaytirishda kadrlarni tanlash jarayonida oiladagi muhitni sog'lomligini asosiy mezon sifatida belgilash muhim ahamiyatga ega**⁴⁰. Oilani mustahkamlashda tug'ilish jarayonini tartibga olish ham muhim rol' o'ynaydi. Bunda oilada 2-3ta bola bo'lishiga erishishga harakat qilish tug'ri bo'ladi. Undan kam bo'lsa ham, ko'p bo'lsa ham muammo kelib chiqa boshlaydi. Masalan, bola tug'ilishi kamaysa depopulyatsiya (aholini kamayishi) kelib chiqadi, ko'paysa ularni boqish, parvarishlash va umuman barkamol qilib tarbiyalash imkoniyati pasayadi va natijada yordamga muhtoj bo'lgan zaif oilalar ko'payadi. Qolaversa tug'ilishning yuqoriligi tabiat bilan jamiyat urtasidagi muvozanatni buzilishiga olib kelib ekologik muammolarni keltirib chiqara boshlaydi⁴¹.

Oila inqirozi oila o'z funktsiyalarini bajarmasligini anglatadi. Oila ming yillar davomida o'z funktsiyalarini bajarib insoniyatning keyingi mavjud bo'lishini ta'minlab keldi va lekin, xozirgi kunda esa, bu muammo bulib qoldi. Shuning uchun ona va bolani oila doirasidan tashqarida himoya qilishga urinish kelib chiqmoqda. Lekin, bunday yondashuv bilan muammoni echimni topib bo'lmaydi. Nega deganda, muammoga sabab va oqibat nuqtai nazardan yondashganda bola va onani yordamga muhtoj bo'lib qolishini sababi oilaning inqirozi ekanligini ko'rish

⁴⁰ O.Hasanboeva va b. Oila pedagogikasi. Toshkent. "Aloqachi" nashriyoti 2007-y. 57-bet.

⁴¹ Karang. A.To'xtasinov, N.Raximov. "Nikox, oila, jamiyat", T. 1985. 6-7 betlar

mumkin. Sabab bartaraf qilinmasa, oqibat bartaraf qilinmasligi allaqachonlar isbotlangan oddiy xaqiqatdir. Shuning uchun mashhur Ibn Sino “**kasallikni emas sababini davolash kerak**”⁴² deb yozib qoldirgan.

Oilani mustahkamlashda ayolni oiladagi mehnatini qadrlash va mavqeini yuksaltirish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, oila deganda eng avvalo ayol tushuniladi, boshqacha qilib aytganda oila soʻzi ayol soʻzi bilan assotsiatsiyalashadi, chunki tabiat ayolni shunday yaratgan yaʼni ayol hayot mazmuni boʻlgan hayotni davomiyligini ifodalaydi va bu faqat oilada amalga oshiriladi. Oilani ayolsiz tasavvur qilib bulmaydi, chunki oila deganda bolani dunyoga kelishi va ulgʻayishi tushuniladi. Bola deyildimi albatta ayol bilan bogʻliqlikda tasavvur qilinadi. Shuning uchun “Sogʻlom ona-sogʻlom bola” kontseptsiyasi mavjud. Oila va bola tushunchalarini ona yoki ayol tushunchalaridan ajralagan holda qabul qilish bu oilaning inqirozini alomatidir.

Oilani mustahkamlash fakat oilada ayolni rolini va mavqeini mustahkamlash orqaligina taʼminlanishi mumkin. Ayolni oila doirasidan tashqariga intilishi yaʼni oila oʻchogʻidan tashqariga jalb qilinishi tabiiy funktsiyalardan chekinish boʻlib hisoblanadi. Shuning uchun oilani ayolsiz, ayolni mexnatisiz tasavvur qilib boʻlmaydi va ayolning oiladagi mehnatini hech kim bosa olmaydi. Lekin, oilani uzok evolyutsion jarayonda rivojlanishi shunday holatni keltirib chiqardiki ayol ham oilada, ham ijtimoiy hayotda faol ishtirok etadigan boʻlib qoldi. **Lekin, ayolning oiladagi mehnati etarli darajada qadrlanmaydigan boʻlib qoldi va uy bekasi bekorchi degan tushuncha shakllandi. Vaxolanki, uy beksi bekorchi emas, balkim eng sharaflil kasb deb tan olinishi lozim. Chunki, ayol oilaga va bolalariga xizmat qilib jamiyatga xizmat qiladi**⁴³. Boshqacha qilib aytganda, ota-onal oilada bolaga boʻlgan ehtiyojini qondirish orqali davlat va jamiyatni maʼlum bir rolʼ va status egalariga bulgan ehtiyojini qondiradi. Demak, ayol oilaga xizmat qilishi bilan jamiyatga ham xizmat qilar ekan, shuning uchun ayolning oiladagi mehnati qadrlanishi va kasb

⁴² Альперович В. Социальная геронтология. Ростов-на-Дону. 1997г. С.59.

⁴³ «Оила ва жамият» журнали. «Фан» нашриёти, 2009 йил. 3-сон.

sifatida, kasb bulganda xam eng sharaflı kasb sifatida qabul qilinishi lozim. Ayolni oila doirasidan tashqarida ijtimoiy-siyosiy hayotda ishtirok etishi uni majburiyati emas, balki huquqi bo'lishi lozim.

Mamlakatimizda oilani mustahkamlash jarayonida fuqarolik jamiyati shakllanishi bilan bog'lik bo'lgan jihatlarini va SHarqona mentalitetimizni asosi bo'lagan jamoaviylik tuyg'usini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Chunki, fuqarolik jamiyatini shakllanishi va jamoaviylik tuyg'usi oila institutiga o'zini ta'sirini o'tkazadi. Demak, oilani mustahkamlashda ularni ta'sirini ijobiy va salbiy jihatlarini inobatga olish kerak. Har ikkala holatda ham axloqiy tarbiya negizida ma'naviyatni yuksaltirish oilaga bo'lgan salbiy ta'sirni oldini olishga xizmat qiladi. Chunki, fuqarolik jamiyatini shakllanishi va jamoaviylik tuyg'usi ma'naviyatga ehtiyojni kuchaytiradi. Bu borada muhtaram Prezidentimizning "Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch"⁴⁴ asarlari muhim manba bulib xizmat qiladi.

Oilani mustahkamlash uchun mamlakatda oilaga yunaltirilgan siyosat olib borilishi lozim. Boshqacha qilib aytganda mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy yo'naltirilgan yo'lni aniqroq qilib aytganda oilaga ijtimoiy yo'naltirilgan yo'l deb qabul qilish kerak. Bu degani aholini barcha zaif qatlamini ya'ni bolalarni, ayollarni va qariyalarni oila doirasida himoya qilish kerak degani. Axolini yordamga muhtoj qatlamini paydo bo'lishini asosiy sababi bu oila inqirozidir. **Agar oila mustahkam bo'lsa va o'z funktsiyalarini bajara olsa inson dunyoga kelagandan boshlab to dunyoni tark etguncha oilani himoyasi bilan qamrab olingan bo'ladi**⁴⁵. Shuning uchun asosiy e'tibor oilani qo'llab-quvvatlashga va mustahkamlashga qaratilishi lozim.

Hech kim davlat ham, jamiyat ham va alohida shaxs ham oilaga nisbatan befarq bo'lmasligi kerak. Buning uchun oila hayot mazmuni bo'lgan hayotni davomiyligini ta'minlashga xizmat qilishini va shuning uchun oila muqaddas deyilishini doimo yodda saqlashimiz va unutmasligimiz lozim. Agar oilaga nisbatan befarq bo'linsa, oila muammolari faqat oilani elkasiga tashlansa va oila

⁴⁴ I.A.Karimov «Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch» T. 2008 y. 112-b.

⁴⁵ «Оила ва жамият» журналі. «Фан» нашриёти, 2009 йил. 3-сон.

qo'llab-quvvatlanmasa oila instituti barbod bo'lishi mumkin. Oilani barbod bo'lishi esa insoniyatni halok bo'lishini keltirib chiqaradi, chunki insoniyat oilani o'rnini bosa oladigan biror bir boshqa ijtimoiy institutni yarata olgani yuq. **Inson nimaga befarq bo'lsa o'sha narsani yo'qotadi, oilaga befarq bo'lsa oilani, mustaqillikka befarq bo'lsa mustaqillikni va inson zotiga befarq bo'lsa insoniyatni yo'qotadi**⁴⁶. Bunday ayanchli holat ro'y bermasligi uchun adolatsizlikka nisbatan befarq bulmasdan, adolatni qullab-quvvatlab daxldorlik hissi bilan yashash lozim. Chunki adolatsizlik bo'lgan joyda odamlarda befarqlik kayfiyati kelib chiqib boshlaydi. Daxldorlik hissi esa eng avvalo axloqiy tarbiya negizida shakllanadigan yuksak ma'naviyat orqali ta'minlanishi mumkin. Demak, oilani asrash, qo'llab-quvvatlash va mustahkamlashda ma'naviy yuksaklik muhim ahamiyatga ega. Axloqsizlik insoniyatni halokat yoqasiga olib kelib qo'ygan hozirgi murakkab vaziyatdan chiqishni yagona yo'li bu axloqiy tarbiya negizida ma'naviyatni yuksaltirishdir.

Oila hayotining asosiy sohalardan bo'lgan jinsiy xulqdagi buzilishlarni sababi ham axloqsizlikka borib taqaladi. Hayot mazmuni bo'lgan hayotni davomiyligini ta'minlashga qaratilgan jinsiy munosabatlar har bir davrga mos bo'lgan shakllarda amalga oshirilgan va jinsiy munosabatlarning ilk shakli promiskuitetdan (jinsiy xulqda cheklov bo'lmagan) to monogam oilagacha bir qancha shakllargacha rivojlangan. **Oilaning bunday rivojlanishi axloq normalari asosida jinsiy aloqa sheriklari doirasini qisqarishi va oila a'zolarining jipsligini mustahkamlanishi bilan xarakterlanadi.** Lekin, hozirgi kunga kelib jinsiy xulqda gedonizm (jinsiy xulqda axloq normalarini inkor qilish) tamoyilini paydo bo'lishi qaysidir ma'noda promiskuitetga qaytish bo'lib hisoblanadi. Promiskuitet va gedonizmni umumiy tomonlari shundaki ularning xar birida jinsiy xulqda axloq normalari inqor qilinib to'liq erkinlikka asoslaniladi. Oilani bunday holatdan olib chiqib mustahkamlash uchun axloqiy tarbiya negizida ma'naviyatni yuksaltirib axloqsizlik, buzuqlikni oldini olish va bartaraf qilish lozim. Ko'rinib

⁴⁶ Nabiev F.X. Befarqlik ham nodonlik demak. "Zarafshon". 2012 yil, 13 mart.

turibdiki oila bilan bog'liq bo'lgan qaysi muammolarni o'rganmaylik gap ma'naviyatga borib taqaladi.

O'zbekistonda mahalla qadimgi davrlardan boshlab xalqning o'zini o'zi boshqarish organi sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. O'zbekistonda Davlat mustaqilligining e'lon qilinishi bilan mahalla o'zining qadimiy, an'anaviy va huquqiy maqomlariga erisha boshladi. SHu bilan birga, davlat va uning organlari tomonidan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishning huquqiy maqomini mustahkamlash, mahalla, qishloq, ovul va shaharcha fuqarolar yig'inlarini fuqarolik jamiyatining asosiy institutiga aylantirishga doir chuqur islohotlar ham amalga oshirildi. Mustaqillik davrida 10 mingga yaqin mahalla, qishloq, ovul va shaharcha fuqarolar yig'inlari - o'zini o'zi boshqarish organlari tashkil etilib, shundan 8142 tasini mahalla fuqarolar yig'inlari tashkil etadi.

Mustaqillik yillarida mahallalar ijtimoiy-demografik, madaniy-ma'naviy va hududiy-ma'muriy birlik sifatida o'z hududidagi fuqarolar o'rtasida an'ana va urf-odatlar hamda insoniy, xo'jalik, huquqiy munosabatlar birligini tashkil eta boshladi va ular fuqarolar o'rtasidagi o'zaro ijtimoiy munosabatlarni muvofiqlashtirib turuvchi o'zini o'zi boshqarish organlariga aylandi.

"Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari" kontseptual siyosiy dasturga binoan mahallalar fuqarolik jamiyatining asosi deb, e'tirof etildi. Prezident I.A. Karimov mahallalarning fuqarolik jamiyatidagi o'rnini shunday baholaydi: "Mahallalarda siyosiy, iqtisodiy va boshqa masalalarga doir jamoatchilik fikri shakllanadi. Bu esa xalqimizning turmush tarzi, otabobolarimizdan bizga meros bo'lib kelayotgan tafakkur tarzidir. Binobarin, hayotning o'zi mahallalarni rivojlantirish va ularni qo'llab-quvvatlashni taqozo etmoqda. Mamlakatimizda ko'p qirrali islohotlar amalga oshayotgan bir paytda mahalla jamiyat uchun ishonchli tayanch va ta'sirchan kuch bo'lib xizmat qilishi lozim"⁴⁷.

⁴⁷ И.А.Каримов. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари. // Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т\3. Т.: Ўзбекистон, 1996. 10-бет.

Mustaqillik davrida mahallalarning o'zini o'zi boshqarish organi sifatida fuqarolik jamiyatining instituti darajasiga ko'tarilishi maqsadlarida davlat tomonidan chuqur islohotlar amalga oshirildi. 1992 yilda O'zbekiston Prezidentining "Respublika "Mahalla" xayriya jamg'armasining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 1998 yilda O'zbekiston Prezidentining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini qo'llab-quvvatlash haqida"gi, 1999 yilda "Aholini aniq yo'naltirilgan ijtimoiy madad bilan ta'minlashda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari rolini oshirish to'g'risida"gi Farmonlari e'lon qilindi. SHuningdek, kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalarni ijtimoiy himoya qilishda mahallalarning o'rnini oshirishga qaratilgan qator qonunlar, Prezident farmonlari, hukumat qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Mamlakatda fuqarolik jamiyati qurish maqsadlaridan kelib chiqib, 1999 yil 14 aprelda qabul qilingan "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi (yangi tahriri) Qonunning 1-moddasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishning huquqiy tushunchasi quyidagicha ta'riflandi: "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi - fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bi-lan kafolaglanadigan, ularning o'z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek, milliy va ma'naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan hodda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi mustaqil faoliyatidir"⁴⁸.

Ko'rinib turibdiki, mamlakatda o'zini o'zi boshqarish organlari tizimi tushunchasi va uning huquqiy maqomlari rivojlangan demokratik mamlakatlardagi huquqiy mezonlar bilan deyarli bir xil tarzda belgilangan. SHuning uchun ham qisqa davrda - mustaqillik yillarida mamlakatdagi mahallalar oldingi totalitar tuzumdagi partiya va davlat organlarining xalqni mutelikda ushlab turish vositasi sifatidagi vazifalari bekor qilinib, ular tadrijiy ravishda fuqarolik jamiyatining instituti sifatida rivojlana boshladi.

⁴⁸ O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri) // www.lex.uz

Hozirgi davrda O'zbekistonda o'zini o'zi boshqarish organlari - mahalla, ovul, qishloq, shaharcha fuqarolar yig'inlari tizimining o'zini o'zi boshqarishga doir vakolatlari ikki yo'nalishni nazarda tutadi: birinchi yo'nalish - ma'naviy sohadagi vazifalar bo'lib, ularga xalqning bir necha ming yillik tarixidagi noyob, xalqchil an'analarni, qadriyatlarni qaytadan tiklash va rivojlantirishdan iboratdir. Ikkinchi yo'nalish - siyosiy vazifa bo'lib, o'zini o'zi boshqarish institutlarini hozirgi davr talablariga muvofiq tarzda qaytadan tiklash bilan birga, viloyat, shahar, tuman hokimliklari vakolatlarining bir qismini o'zini o'zi boshqarish organlariga, jumladan, mahallalarga berishdir. O'zini o'zi boshqarish organlari mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi sifatida bevosita davlat va jamiyat hayotiga oid bo'lgan masalalarni mustaqil ravishda hal qilish qobiliyatini egallashi ularning fuqarolik jamiyati instituti sifatidagi maqomini belgilab beradi.

Mahalla, qishloq, ovul va shaharcha fuqarolar yig'inlari faoliyat ko'rsatayotgan hududlarning ko'lamini, unda yashovchi aholining miqdori, mazkur yig'inlarning fuqarolar ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, siyosiy mafkuraviy ehtiyojlarini qondirish yo'lidagi faoliyatlari ularni mahalliy xalq hokimiyati tizimining haqiqiy sub'ektiga aylantirdi. Milliy qonunchilikda o'zini o'zi boshqarish organlarining vakolatlari demokratik qadriyatlar talablari darajasida huquqiy jihatdan mustahkamlandi. Unda quyi boshqaruv tizimi hisoblangan o'zini o'zi boshqarish organlariga keng huquqlar berildi. Joylardagi jamoatchilik vakillarining davlat va jamiyatni boshqarish ishlarida to'la ishtirok etishlari kafolatlanib, bu organlar davlat mahalliy boshqaruvidan ajratildi. Ular har qanday tazyiqlar va qaramliklardan xalos bo'lgan mustaqil organ sifatida faoliyat yuritish imkoniyatlariga ega bo'ldilar.

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi (yangi tahriri) Qonunidagi 10- va 11-moddalarda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining vakolatlariga kiruvchi qonun hujjatlari asosida berilgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy sohalarga, ular faoliyat yuritadigan hududdagi tashkilot, muassasa va korxonalar bilan o'zaro

munosabatlarni muvofiqlashtirish, tashkiliy, xo'jalik va boshqa masalalarni hal qilishga oid huquqlar va vakolatlar aniq va ravshan ifodalangan⁴⁹.

Ayniqsa, o'zini o'zi boshqarish organlari vakolatlariga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazuvchi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov o'tkazuvchi uchastka saylovi ko-missiyalarining a'zoliciga nomzodlarni tegishli okrug saylov komissiyalariga tavsiya etish, xalq deputatlari tuman, shahar Kengashi deputatligiga nomzod ko'rsatish to'g'risida qaror qabul qilish, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatligiga, xalq deputatlari viloyat Kengashlari deputatligiga nomzodlar ko'rsatish uchun fuqarolarning nomzodlari bo'yicha hokimiyatning tegishli vakillik organlariga takliflar kiritish to'g'risidagi huquqlarning berilishi bu organlarning fuqarolik jamiyati instituti sifatidagi o'rnini yanada oshirdi.

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi (yangi tahriri) Qonunida mahalla fuqarolar yig'ini kengashining vakolatlari demokratik qadriyatlar talablari asosida belgilab qo'yilgan. Unga muvofiq mahalla oqsoqoli va uning maslahatchi-lari fuqarolar yig'ini kengashi qarorlarini bajaradi hamda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining fuqarolar yig'ini majlisi o'rtasidagi davrdagi joriy faoliyatini boshqaradi. Mahalla fuqarolar yig'ini kengashi tarkibini yig'in oqsoqoli, uning maslahatchilari, fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha tuzilgan komissiyalarning raislari, yig'inning mas'ul kotibidan iborat jamoaviy o'zini o'zi boshqarish vakillari tashkil etadi.

Mahalla fuqarolar yig'ini kengashining qonunda belgilangan muhim vakolatlari quyidagilardan iborat: fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar ishini muvofiklashtiradi, xayriya va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikdagi tadbirlarni o'tkazadi; fuqarolar yig'ini kengashiningdevonini shakllantiradi; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, xalq

⁴⁹ Ўзбекистон Республикасининг «Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида»ги (янги таҳрири) Қонуни. // Маҳалла: ўзини ўзи бошқариш ҳақиқий кафолати. (Қонунчилик ва меъёрий ҳужжатлар тўплами). - Т.: 1999. 65-69-бетлар.

deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlariga ularning saylovchilar bilan uchrashuvlarini uyushtirishda ko'maklashadi; ommaviy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy, sport tadbirlari va boshqa tadbirlarni o'tkazishda mahalliy davlat hokimiyati organlariga ko'maklashadi; xotin-qizlarning manfaatlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy hayotdagi, yosh avlodni tarbiyalash ishidan mavqeini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'radi; fuqarolar diniy e'tiqod erkinligi huquqlariga rioya etilishini ta'minlash chora-tadbirlarini ko'radi, vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi bilan bog'liq bo'lgan boshqa masalalarni ko'rib chiqadi; ikki yoshga to'lmagan bolalari bor, vaqtinchalik ishlamaydigan onalarga nafaqalarni davlat byudjeti mablag'lari hisobidan belgilangan tartibda to'laydi; mazkur hududda yashovchi fuqarolarni ish bilan ta'minlashga ko'maklashadi; bolalar sport maydonchalarini jihozlash, yo'l, ko'priklar, ko'cha, yo'laklar, kommunal tarmoqlarni qurish, qayta qurish, ta'mirlash va saqlash, tarix va madaniy yodgorliklarni ta'mirlash ishlarida ixtiyoriylik asosida qatnashadi, dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirishga ko'maklashadi; tegishli hududdagi erlardan foydalanish va muhofaza etish ustidan jamotchilik nazoratini amalga oshiradi⁵⁰.

«Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi (yangi taxriri) Qonunni qabul qilishdan asosiy maqsad fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishini ta'minlash hamda aholining manfaatlarini himoya qilish va fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishning huquqiy asosini yaratishdan iborat edi.

Mamlakat Prezidenti I.A. Karimov o'zining ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning IX sessiyasidagi ma'ruzasida o'zini o'zi boshqarish organlarining jamiyat va davlat boshqaruvidagi o'rnini oshirishga doir quyidagi fikrni bildirgan edi: "Hayotimizni erkinlashtirish yo'nalishlarining yana bir muhim yo'li - markaziy va yuqori davlat boshqaruv idoralari vazifalarini davlat hokimiyatining quyi tuzilmalariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-

⁵⁰ Ўзбекистон Республикасининг «Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида»ги (янги таҳрири) Қонуни. // Маҳалла: ўзини ўзи бошқариш ҳақиқий қафолати. (Қонунчилик ва меъёрий ҳужжатлар тўплами). - Т.: 1999. 69-72-бетлар.

bosqich o'tkaza borishni ta'minlashdir"⁵¹. Albatta, davlat tomonidan mahallalarga ba'zi boshqaruv vakolatlarini berishda fuqarolar yig'inlarining aholi faolligini oshirishdagi o'rnini yuksaltirish ko'zda tutildi. Chunki, mahalla fuqarolar yig'inlariga etarli boshqaruv huquqlari va vakolatlari berilmasa, ular o'zini o'zi boshqarish funktsiyalarini bajara olmas edilar. Shuningdek, mahallalarning jamiyat va davlat oldida mas'uliyatli bo'lishlari uchun ham, avvalambor, ular mustaqil faoliyat yuritish huquqlariga ega bo'lishlari zarur.

XX asr oxirida boshlangan jamiyatning siyosiy sohasi-ni erkinlashtirish maqsadidan kelib chiqib, mahalla fuqarolar yig'inlariga yangi boshqaruv vakolatlari beriddi. Mahalla o'z hududida yashayotgan fuqarolarning turli ijtimoiy muammolarini hal qilib berishda bevosita ishtirok etib, u qariyalar, faxriylar, baynalmilal-harbiylar, kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalar va har bir fuqaro manfaatlarini himoya qiladi, mahalla faollarining bu sohadagi faoliyatiga boshchilik qiladi.

Mahalla fuqarolar yig'ini kengashi mavjud qonunchilikka binoan ijtimoiy ta'minot organlari va boshqa homiy tashkilotlar bilan birgalikda ijtimoiy yordam, kam ta'minlangan oilalar va yolg'iz kishilarga davlat va mahalla fuqarolar yig'ini nomidan moddiy yordam ajratish ishining barcha tashkiliy jihatlarini amalga oshiradilar.

Shu bilan birga, Oliy Majlis qabul qiladigan qonunlar loyihalari, Konstitutsiyaga kiritiladigan o'zgarishlar yuzasidan o'tkaziladigan umumxalq referendumlariga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish, avvalo, mahalla ahli va faollari tomonidan muhokama qilinadi va qo'llab-quvvatlanadi. Mahalla fuqarolar yig'inlari siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlarida fuqarolarning faol ishtiroklari uchun shart-sharoitlar yaratishda muhim o'rin tutadi.

Mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida mahalla fuqarolar yig'inlarining nufuzini ko'tarish, ularning o'zini o'zi boshqarish faoliyatlariga ko'maklashish, shuningdek, fuqarolarning ijtimoiy haetdagi faolligini oshirish maqsadlarida 1992 yil 12

⁵¹ И.А.Каримов. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари. // Биз танлаган йўл - демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т. II. - Т.: Ўзбекистон, 2003. 29-бет.

sentyabrda Respublika "Mahalla" xayriya jamg'armasi tashkil qilindi. Jamg'arma faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maxsus Farmonlari (1992 yil 12 sentyabr' va 1992 yil 8 oktyabr') e'lon qilindi. Shuningdek, 1992 yil 17 oktyabrda Vazirlar Mahkamasining "Respublika "Mahalla" xayriya jamg'armasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorga muvofiq, jamg'arma nizomida uning quyidagi yo'nalishlar bo'yicha faoliyat yuritishi belgilab ko'yildi:

- tarixan shakllangan milliy va ma'naviy qadriyatlarni keng targ'ib qilish;
- eng yaxshi milliy urf-odatlar va an'analarni keng yoyish, aholi o'rtasida madaniy-ma'rifiy ishlarni yo'lga qo'yish;
- xayr-saxovat va insonparvarlik, odamlar orasida bir-birini tushunish va yaxshi qo'shnichilik g'oyalarini tushuntirish uchun faol targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish;
- kam ta'minlangan oilalar, nogironlar, qariyalar va bolalar huquqlarini har tomonlama ijtimoiy himoyalash va hokazo⁵².

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri, vi-loyatlar va barcha shahar va tumanlarda jamg'armaning bo'lim-lari faoliyat ko'rsatadilar. SHuningdek, jamg'armaning asosiy maqsadi mahalla fuqarolar yig'inlari faoliyatini muvofiqchashtirish va qo'llab-quvvatlashdan iboratdir. Jamg'arma 1996 yildan buyon o'zining "Mahalla" gazstasini nashr etib keladi.

Respublika "Mahalla" xayriya jamg'armasi, uning vilo-yat, shahar, tuman bo'limlari bilan hokimliklar hamkorli-gida har yili "Eng yaxshi mahalla", "Eng ibratli oqsoqol", "Mahalla jonkuyari", "Eng tadbirkor mahalla oqsoqoli" shiori ostida muttasil ko'rik-tanlovlar o'tkazib turish an'anaga aylandi.

Hozirgi davrga kelib Respublika "Mahalla" xayriya jam-g'armasining aholining huquqiy madaniyati va faolligini oshirish maqsadida mahallalarda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish komisspyasi

⁵² Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1992 й. 17 октябрдаги «Республика «Маҳалла» хайрия жамғармаси фаолиятини ташкил этиш масалалари тўғрисида»ги қарори. // Маҳалла: ўзини ўзи бошқариш ҳукуқий кафолати (Қонунчилик ва меъёрий ҳужжатлар тўплами). - Т.: 1999. 87-89. Б.

tomonidan ishlab chiqilgan "Mahalla darsxonasi"ning dasturini bajarish rejasini muttasil ravishda "Mahalla" gazetasida e`lon qilib borish an`anaga aylangan. Barcha mahalla fuqarolar yig'inlarida Konstitutsiyani o`rganishni tashkil etish uchun huquqiy ma`lumotga ega bo`lgan mutaxassislar, siyosatshunoslar, amaliyotchilardan iborat targ'ibot va tashviqot guruhi faoliyat ko`rsatib kelmoqda.

Mahalla ahlining ijtimoiy fikrlashiga demokratik qadriyatlar singib bormoqda. O`tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar natijasi shuni ko`rsatdiki, har bir oila, mahallada yashayotgan fuqaro o`z hayoti va taqdirini mahallasiz tasavvur qila olmaydi. Respublika "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o`rganish markazining 2003 yil yanvarda o`tkazgan sotsiologik so`rovnomasida "Mahalla oiladagi ichki muammolarni hal qila oladimi?" degan savol berilgan edi. Bu savolga so`ralgan fuqarolarning 63,1 foizi ijobiy javob berdilar. SHu bilan birga, so`ralganlarning 82,5 foizi mahalla yig'inining qo`ni-qo`shnilar o`rtasidagi kelishmovchilikni bartaraf etishga, 84,4 foizi esa to'y, ma`raka, dafn va boshqa marosimlarini tashkil etishga boshchilik qilishiga ishonadi⁵³. Ko`rinib turibdiki, mahalla fuqarolarning birlamchi hayotiy ehtiyojlari ifodachisiga aylanib bormoqda.

2003 yilda qabul qilingan "Obod mahalla yili" dasturidan kelib chiqib o`zini o`zi boshqarish organlarini muvofiqlashtiruvchi kengashlarning tuzilishi munosabati bilan "Mahalla" jamg`armasining asosiy vazifalari va vakolatlari qaytadan ko`rib chiqildi. O`zini o`zi boshqarish bo'yicha Respublika kengashi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shahar va tumanlar fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish ishlari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengashlari tuzilib, "Mahalla" jamg`armasi, uning joylardagi quyi tarkibiy tuzilmalariga mazkur kengashlarning ishchi organi funktsiyalarini bajarish vakolatlari berildi.

Mustaqillik davrida mahallalar fuqarolar yig'inlari oqsoqollari, "Mahalla" jamg`armasi va uning mahalliy tashkilotlari rahbarlarining sifat tarkibi yaxshilanib bordi. 2001 yil may-iyun oylarida mamlakatda o`zini o`zi boshqarish organlari -

⁵³ Республика жамоатчилик фикрини ўрганиш «Ижтимоий фикр» марказининг жорий архиви. 2003 й. январда ўтказилган «Маҳалла - жамоатчилик фикри кўзгусида» мавзусидаги социологик сўровлар материаллари, 3-5-бетлар.

mahalla, ovul, qishloq, shaharcha fuqarolar yig'inlariga o'tkazilgan saylov bu soha rahbarlarini etuk kadrlar hisobiga sifat jihatdan o'zgarishiga olib keldi.

Xulosa kilib shuni aytish mumkin, oilani mustahkamlash muammolari fuqarolik jamiyatini shakllanishi bilan murakkablashib boradi. Fuqarolik jamiyati shakllanishi jarayonida odamlarni huquqi ortib xulqida erkinlik kengayadi va natijada to'g'ri yo'ldan og'ish holatlari kelib chiqa boshlaydi. Oilani global inqirozi ana shunday to'g'ri yo'ldan og'ishni va axloqsizlikni oqibati bo'lib hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati ancha oldin boshlangan G'arb mamlakatlarida oilaning global inqirozi yaqqolroq namoyon bo'lmoqda. Sharq mamlakatlarida, jumladan O'zbekistonda fuqarolik jamiyati endigina shakllanayotganligi tufayli oilaning global inqirozi ham endigina namoyon bo'lmoqda. G'arbda fuqarolik jamiyati shakllanishi jarayonida axloqiy tarbiyaga etarli darajada e'tibor qaratilmaganligi va G'arbga xos bo'lgan individualizm tuyg'usi ma'naviyatga ehtiyojni kuchaytirmaganligi tufayli ma'naviyat zamon talablaridan orqada qola boshlaydi va oilaning global inkirozini keltirib chiqaradi.

Oilaning global inqirozi ro'y berib turgan hozirgi kunda axloqiy tarbiya negizida ma'naviyatni yuksaltirish orqali oilani mustahkamlab uni ta'lim o'chog'i va jamiyat tayanchiga aylantirish mumkin. Shu bilan birgalikda mamlakatimizda oilaga yo'naltirilgan siyosat olib borilib oilada tug'ilish jarayonini tartibga olish, bola tarbiyasi oldida ota-ona mas'uliyatini oshirish, oiladagi ayol mehnatini qadrlash, oila xo'jaligini iqtisodiy faoliyatini tiklash va oilada sog'lom muhitni shakllantirish choralarini ko'rish oilani mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega⁵⁴.

⁵⁴ Nabiyeu F.X. Yuksar ma'naviyat va etuk siyosiy madaniyat. "Mahalla" 2010 y. 29 aprel.

Xulosa

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng o'ziga xos taraqqiyot va rivojlanish yo'lini bosib o'tmoqda va bugungi kunda jamiyatni ijtimoiy-ma'naviy yuksaltirish, oilaviy munosabatlarni jamiyatda tutgan o'rnini, mavqeyini mustahkamlash, sog'lom avlod tarbiyasiga ahamiyat berish asosiy vazifalardan bo'lib qolmoqda. Ijtimoiy munosabatlar jamiyatning tuzilishini vujudga keltiradi. Ijtimoiy munosabatlar ijtimoiy hayotni, ayniqsa oilaviy hayotni mohiyatini ifodalaydi. Oila esa odamlarning iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birlikdir. Oilaviy birlikda shaxslar o'rtasida axloqiy, psixologik, jismoniy va xo'jalik-maishiy aloqalar sodir bo'lib, ular hayotda va maqsadlarda umumiylikni vujudga keltiradi. Ota-onalar va bolalar har taraflama jipslashgan oila birligini tashkil etadi. Ular o'rtasida juda yaqin oilaviy munosabatlar mavjud bo'ladi. Oila nikoh, uning natijasida er-xotin munosablari, so'ngra farzandlardan tashkil topadi. Farzandlar tarbiyasi esa ota-onaga bog'liq bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, oilaning mazmun-mohiyatini to'g'ri anglash va o'rganish, har bir ijtimoiy ishchi kasbi bilan shug'ullanuvchi xodimning asosiy vazifasi deb qaralishini taqazo etadi. Ayniqsa, oilada bolalar tarbiyasi bosh vazifa deb qaralishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqib, ushbu tadqiqot ishi **“Barkamol avlodni shakllantirishda “Obod turmush yili”ning ahamiyati”** mavzusida yoritish bugungi kunning dolzarb mavzusi sifatida tanlandi, aniq reja asosida yoritildi. Tadqiqot ishida kirish, mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, tadqiqotning uslub va yo'llari, ilmiy faraz aks etgan bo'lib, birinchi bobda **“Mustahkam oila tushunchasi uning vujudga kelishi va yuksalishi, oila tushunchasi, mohiyati va vazifalari va ijtimoiy xususiyatlar”**i yoritildi. Ikkinchi bob esa, **“Obod turmush yili”ni barkamol insonni shakllantirishdagi o'rne**” bo'lib unda asosiy maqsad qilib mustahkam oila jamiyat taraqqiyotining muhim omili ekanligi belgilandi va tadqiqotning uslub va yo'llari, shunga ko'ra ilmiy

faraz belgilandi. So'ngida esa xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'ladi.

Ishni amalga oshirishda uning aniq joyi muhim bo'lib, obyektни belgilash, u yerdagi shart-sharoitlarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot ishining obyekti qilib Samarqand viloyat Nuroniy mahalla jamg'armasi belgilandi. Bu yerdagi olib borilayotgan ishlar, rejalar asosidagi aniq yo'nalishlar uning metodologik tomonini yoritisa, amalga oshirilayotgan barcha ishlar, tadbirlar, oilaning mustahkamlanishida mahallaning vazifalari borasidagi qilinayotgan barcha ishlar, tadqiqotning amaliy jihatlarini yoritishda muhim omil bo'lib xizmat qildi. Bu borada tadqiqotning uslub va yo'llari belgilandi. Shu bilan birga Samarqand shahridagi 9-son "Mehribonlik uyi" da misolida ham bir qancha kuzatishlarni olib bordim. U yerda olib borilayotgan amaliy ishlarim ushbu tadqiqot ishimga allaqancha turtki bo'lib xizmat qildi.

Ma'lumki, ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan oilaviy munosabatlar madaniyatini farzandlar kamolotiga ta'siri haqidagi ma'naviy-axloqiy merosini hozirgi davr uchun ahamiyatini tahlil qilish zarur bo'ladi. Shunga ko'ra oila madaniyatining hozirgi davrdagi o'ziga xos xususiyatlarini nazariy jihatdan tadbiq etish muhimdir. Oilada farzandlar tarbiyasini shakllantirishda ma'naviy tarbiyaga e'tibor berish, bola tarbiyasiga zid ravishda zo'ravonlik holatlariga yo'l qo'ymaslik, farzandlarga tazyiq o'tkazmaslik va shu o'rinda mahallaning ta'siri ostida amalga oshirish bu borada mahalladagi faoliyati asosiy maqsad qilib belgilandi.

Ma'lumki, ijtimoiy munosabatlar ijtimoiy hayotning mohiyatini ifodalaydi. Oila esa odamlarning tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birlikdir. Oilada er-xotin bilan birga bolalarning bo'lishi tipik oilani vujudga keltiradi. Ota-onalar va bolalar har taraflama jipslashgan oila birligini tashkil etadi. Shunga ko'ra, oilaviy munosabatlar tizimida tabiiy, axloqiy-estetik, psixologik munosabatlarni farqlash mumkin.

Oilaviy munosabatlarida ruhiy holat muhimdir. Er-xotin o'rtasidagi sevgi-muhabbat hissiyoti, ota-onalik, farzandlik mehri, oilada farzand tarbiyasida asosiy

omil hisoblanadi. O'zbek oilalarida serfarzandlik ulug'lanadi. Oilada shakllangan odob-axloq masalasiga Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov quyidagi fikrlarni bildiradi: - "Oilada, maktabda, mehnat jamoasida, mahallada olib boriladigan axloqiy tarbiya, mahallada olib boriladigan axloqiy tarbiya, jamoatchilik fikrining kuchi, ommaviy axborot vositalari, din peshvolarining obro'-e'tibori, mahallaning o'rnini, hamma hammasi, har qanday harakatlarga qarshilikni shakllantirishga qaratilmog'i lozim"⁵⁵.

Ushbu fikrlardan kelib chiqib, oilada farzand tarbiyasida zo'ravonlik holatlarini kelib chiqishiga qarshi hatti-harakatlarni oldini olish borasida mahallaning o'rnini ham alohida ta'kidlash zarur bo'ladi. Mahalla faolligi oila mustahkamligining tayanchi ekanligiga har bir kunimizning shioriga aylanib qolgan. "Bir bolaga yetti mahalla javobgar" degan xalq naqli o'z ichiga ko'p ma'noni qamrab olgan. Mahalla – oila hamkorligi, yaqin qo'shnilarning tanbehlari barchasi faqat yaxshi niyatda bo'ladi va farzandlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ota-bobolarimiz bolaga hech qachon do'q-po'pisa qilmaganlar, zo'ravonlik ishlatmaganlar. Ohista shirin ovoz bilan "Yomon bo'ladi" degan birgina ibora bilan tarbiyaviy o'g'itlarni singdirganlar, zo'ravonlik maqsadida muomala qilmaganlar.

Ota-onalarning oiladagi, ayniqsa farzandlar ko'z o'ngidagi ahilligi, mahalladagi katta yoshdagi kishilarning kichiklarga g'amxo'rlik munosabati, oilaviy tarbiyani asosini tashkil etadi. Bu ahillik munosabati har bir oilaga o'z ta'sirini o'tkaza oladi. Farzandlar buni ta'sirini sezgan holda munosabatini bildiradilar. Orqalarida aniq ta'sir etuvchi kuch borligiga ishonadilar va shu zaylda faoliyat ko'rsatadilar.

Xulosa qilib aytganda oila davrasida, mahallada ota-onaning ijobiy fazilat va munosabatlari mahalla ahlining jipsligi, bolalarning to'g'ri tarbiyalanishini zaruriy shartidir. Bu boradagi oiladagi nizoli vaziyatlarni oldini olish, oilaning moddiy ahvoli, ma'naviy sifatlariga e'tibor berish, fuqarolik yig'ini raislari, xotin-qizlar, komissiyalari mahalla faollarining pedagogik-psixologik bilimlari va tajribalariga

⁵⁵ Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T. 2011 y.

bog'liqdir. Bugungi jamiyatimizning yadrosi sanalmish, oilalarni butunligini saqlash, farzandlar tarbiyasini, sog'lom avlod tarbiyasining asosiy mezoni bo'lmish ma'naviy tarbiyani tashkil etish faqat ota-onalarni burchi bo'libgina qolmay, balki keng jamoatchilikning asosiy vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov asarlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent 2012.
2. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. // Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T 3. T.: O'zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. Oila farovonligi - millat farovonligi."O'zbekiston". T.6. 1998.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent. 1999.
5. Karimov I.A. Milliy istiqlool mafkurasi - xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonch. - T.: "O'zbekiston". T.8. 2000.
6. I.A.Karimov. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. // Biz tanlagan yo'l - demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T. II. - T.: O'zbekiston, 2003.
7. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent 2008.
8. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. Xalq so'zi. 2010 yil 13 noyabr.
9. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yanada yuksaltirishdir // Toshkent: O'zbekiston, 2010.
10. Karimov I.A. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga. 2010 y 25 iyun' // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmatining veb-sayti – WWW.press-servic.Uz.
11. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. - T.: O'zbekiston, 2011 y.
12. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. Toshkent 2012 y.
13. Karimov I.A. Tarixiy xotira va inson omili buyuk kelajagimizning garovidir Risola T. 2012.
14. Karimov I.A., O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21 yilligiga bag'ishlangan anjumandagi ma'ruzasi. Xalq so'zi, 2013 yil, 7-dekabr. 3-bet.

15.O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri) // www.lex.uz

Darslik va o'quv qo'llanmalar

17. Yusuf Xos Hojib. «Qutadg'u bilig» («Saodatga boshlovchi bilim»). So'zboshi muallifi B.To'xliiev; Rassom SH.Muhammadjonov. – T.: YUlduzcha, 1989.
18. Navoiy A. Hayratul-abror So'zboshi muallifi A.Hayitmetov; Mas'ul muharrir: V.Rahmonov. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.
19. A.To'xtasinov, N.Raximov. “Nikoh, oila, jamiyat”. Risola T. 1995
20. Bo'rieva M. R. O'zbekistonda oila demografiyasi. – T.: «Universitet», 1997.
21. Qoraev S. O'zbekiston viloyatlari toponimlari./Mas'ul muharrir A.Muhammadjonov./– T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2005.
22. Ubaydullayeva R.A. Mustaqil O'zbekiston: ayol, oila va jamiyat. T.: Fan, 2006.
23. O.Hasanboeva va b. Oila pedagogikasi. Toshkent. “Aloqachi” nashriyoti 2007.
24. Oila ma'naviyati. O'zbekiston Respublikasi. Jamoatchilik fikrini o'rganish «Ijtimoiy fikr» Markazi. O'quv qo'llanma. Toshkent -2007.
- 25.«Mahallot» – «mahalla» so'zining ko'pligi bo'lib, «mahallalar» ma'nosini beradi. «Boburnoma» uchun qisqacha izohli lug'at./Tuzuvchi Fathiddin Ishoqov./– Andijon: «Andijon nashriyot-matbaa» OAJ, 2008.

Gazeta va jurnallar

1. O'zbekiston “Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi”ga 1991 yilning 30 sentyabrida qo'shilgan.Mazkur xalqaro hujjat mustaqillikka erishgan O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan birinchi xalqaro hujjat hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida, O'zbekiston Konstitutsiyasida ta'kidlanganidek, O'zbekistonning «inson huquqlariga va davlat suvereniteti g'oyalariga sodiqligini» (“Muqaddima”dan) tasdiqlaydi. “Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi”ning o'zbekcha matni bo'yicha Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar: to'plam / O'zbekcha nashrning mas'ul muharriri A.X.Saidov. – T.: «Adolat», 2004; Sirojov G'. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga sharhlar. – T.: «Adolat», 1999.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 y. 17 oktyabrdagi «Respublika «Mahalla» xayriya jamg'armasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida»gi qarori. // Mahalla: o'zini o'zi boshqarish huquqiy kafolati (Qonunchilik va me'yoriy hujjatlar to'plami). - T.: 1999.
3. Respublika jamoatchilik fikrini o'rganish «Ijtimoiy fikr» markazining joriy arxivi. 2003 y. yanvarda o'tkazilgan «Mahalla - jamoatchilik fikri ko'zgusida» mavzusidagi sotsiologik so'rovlar materiallari, 3-5-betlar.
4. Nabiye F.X. Yuksar ma'naviyat va etuk siyosiy madaniyat. "Mahalla" 2010 y. 29 aprel.
5. Nabiev F.X. Befarqlik ham nodonlik demak. "Zarafshon". 2012 yil, 13 mart.